

MAVZU: IQTISODIYOT BILAN TANISHUV

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni iqtisodiyot bilimlari haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lган malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobilyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixozи: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIOLAR

1. "Iqtisodiyot" so'zini qanday tushunasiz?
2. Iqtisodiyot nimalardan tashkil topgan?
3. Iqtisodiyotning asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?
4. Nima sababdan iqtisodiyotni o'rganish lozim?
5. Yuqorida keltirilgan rasmlarni ko'zdan kechirib, mustaqillik yillarida bunyod etilgan, respublikamiz iqtisodiyotining poydevorini tashkil etuvchi ishlab chiqarish korxonalari va muassasalarini sanang?

IQTISODIYOT

Tabiatda tayyor holda non, kiyim-kechak, uy-joy yo'q. Inson ehtiyoji uchun kerakli, tabiatda tayyor holda uchramaydigan barcha narsalarni o'zi yaratishga majbur. U shu maqsadda tabiat qo'ynida iqtisodiyot deb atalmish ulkan xo'jalikni barpo etdi. Endilikda iqtisodiyot xo'jalik yuritish tizimi sifatida — insonning yashashi va kamol topishining birdan bir vositasiga aylangan.

Iqtisodiyotning eng asosiy tarkibiy qismi bu odamlardir. Odam o'z mehnati, aql-idroki evaziga qitisodiyotni harakatga keltiradi, boshqaradi. Iqtisodiyotning ikkinchi tarkibiy qismi bu tabiatdir.

Tibiat iqtisodiyotning xomashyo omboridir. Iqtisodiyotning uchinchi bo'lagi — bino va inshootlar, zavod va fabrikalar, yo'l va ko'priklar, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar va boshqa qator inson qo'li bilan yaratilgan narsalardan tarkib topgan sun'iy muhitdir.

Iqtisodiyotning shu uch tarkibiy qismlarining birikishi asida, iqtisodiy jarayon vujudga keladi. Iqtisodiy jarayonlar bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda, inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan ne'matlar, ya'ni tovar va xiz-lar yaratiladi, ishlab chiqariladi. Ikkinchi bosqichda yaratilgan va xizmatlar taqsimlanadi. Keyingi bosqichda ular ayir-ilanadi va nihoyat oxirgi bosqichda iste'mol qilinadi.

Iqtisodiyotni yuritish, ya'ni iqtisodiy jarayonlarni boshqarish losi bilan odamlar qadimdan tanish bo'lganlar. Yunoniston-ming yil oldin "Ekonomikos" (o'zbek tilidagi ma'nosi — xo'jaligini yuritish san'ati), deb nomlangan iqtisodiyotga oid birinchi kitob Ksenofont (eramizdan awalgi 430—355-yillar) nonidan yozilgan. "Ekonomika" (o'zbek tilida "iqtisodiyot") hu kitob nomidan kelib chiqqan. Hozirda iqtisodiyot fani aaqat birgina uy xo'jaligini, balki butun bir davlat, hatto dunyo gini yuritish yo'l-yo'riqlari haqidagi fan sifatida tushuniladi. iay qilib, iqtisodiyot fani — odamlarning iqtisodiy ne'matlarni arajonidagi faoliyatini, ozaro munosabatlarini o'rqa-Entigan fan ekan. Zamonaviy iqtisodiyot fani mikroiqtisodiyot o'iqtisodiyot deb, nomlangan qismlarga bo'linadi. Microiqtisodiyot — alohida olingan oila, korxona, tarmoq tini o'rganadi. Makroiqtisodiyot esa, mamlakat miqyosi-iqtisodiyotni o'rganadi. Biz tanishuvni mikroiqtisodiyotdan tariifavmiz.

Tayanch atamalar

Iqtisodiyot — insonning hayot ke-chirishi uchun zarur ne'matlami yaratish-ga qaratilgan xo'jalik yuritish tizimi.

Iqtisodiyot fani — odamlarning iqtisodiy ne'matlami yaratish jarayonidagi faoliyatini va o'zaro munosabatlarini o'r-ganadigan fan.

Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari — tabiat, odamlar va odamlar tomonidan yaratilgan barcha narsalar.

Buni yoddatuting!

Iqtisodiy jarayonlar ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Mikroiqtisodiyot — alohida olingan oila, korxona, tarmoq iqtisodiyotini, makroiqtisodiyot esa mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o'rganadi nadi.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

MAVZU: CHEKLANGANLIK MUAMMOSI

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarnicheklanganlik muamosi haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobilyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixozi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

IQTISODIYOTNING ASOSIY MUAMMOSI

Inson — ongli mayjudot. U har doim yaxshi yashashga intilib kelgan. Ayiqning qomi to'ysa, iniga kirib uxlaydi. Inson esa erishgan nursasi va mavqeyi bilan qanoatlanmaydi. U yaxshiroq ovqatunishga, yaxshiroq kiyinishga, yaxshiroq turmush sharoitiga ega bo'lishga, yuqoriroq martabaga ega bo'lishga, tabiat va jamiyatda kechayotgan hodisa va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga, yaxshiroq bilim olishga intiladi. Unga har doim nimadir yetishmaydi. Shu bois "Inson ehtiyojlarining poyoni, cheki yo'q!" deb aytamiz.

Inson ehtiyojlarini qondirishi uchun unga turli xil ne'matlar zauz bo'ladi. Bu ne'matlarning ba'zilarini (havo, suv, quyosh yorug'ligi, issiqligi va hokazolarni) insonga tabiat tekin in'om cladi. Ularni erkin ne'matlar deb, ataymiz. Qolganlarini esa inson o'z mehnati, iqtisodiy faoliyati orqali yaratishi, ishlab chiqarishi lozim bo'ladi. Ularni iqtisodiy ne'matlar deb, ataymiz. Inson ehtiyojlarini biror-bir moddiy narsa - tovarni iste'mol qilish yoki biror-bir xizmatdan foydalanish evaziga qondirishi mumkin. Biror narsani ishlab chiqarish uchun tabiatdan xomashyo, insoning jismoniy kuchi, biliyi, turli xil mashina va mexanizmlar, asbob - uskunalar, bino va inshootlar, xullas, bir so'z bilan aytganda, ishlab chiqarish resurslari zarur bo'ladi. Iqtisodiy resurslar miqdori esa, afsuski chegaralangan. Shu bois insoning hamma yetishmovchiliklarini, ehtiyojlarini to'la qondirishning iloji yo'q. Iqlisodchilar bu muamrnoni cheklanganlik muammosi deb, yuritishadi va u iqtisodiyotning asosiy muammosi hisoblanadi.

Odamlarning cheklangan resurslardan foydaianib, poyonsiz ehtiyojlarini to'laroq qondirishga qaratilgan, oqilona xo'jalik yuritish yo'l-yo'rqliqlarini iqtisodiyotfani o'rganadi. Bu borada qo'lingizdagi mazkur kitob siz uchun ilk manba bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch atamalar

Ehtiyoj — insoning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga muhtojligi.

Shaxsiy ehtiyojlar — alohida olingan shaxsgagina tegishli bo'lgan ehtiyojlar.

Ijtimoiy ehtiyojlar — kishilarning yonma-yon, hamjihatlikda hayot kechirishi bilan bog'liq, birgalashib qondiriladigan umumiy ehtiyojlar.

Iqtisodiy resurslar — tovar va xizmatlar yaratish uchun asqotadigan barcha narsalar.

Erkin ne'matlar — insonga tabiat in'om etgan tekin ne'matlar.

Iqtisodiy ne'matlar — inson iqtisodiy faoliyati orqali yaratiladigan ne'matlar.

Cheklanganlik muammosi — chek-siz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o'rtasidagi no-mutanosiblik.

Buni yoddatuting!

- Ehtiyojlar tovar va xizmatlarni iste'mol qilish orqali qondiriladi.
- Cheklanganlik muammosi cheksiz ehtiyojlarini cheklangan resurslar yorda-mida qondirib bo'l-masligi oqibatida kelib chiqadi.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inson Yer yuzida yashab, to'laqonli hayot kechirishi uchun o'zida nimalarga muhtojlik, ehtiyoj sezadi? 3 minut ichida bu ehtiyojlar ro'yxatini tuzing va uni yoningizdagi o'rtog'ingiz bilan o'zaro muhokama qiling. Agar vaqt yetarlicha bo'lganda edi, bu ro'yxatni yana qanchagacha davom ettirishingiz mumkin edi? Umuman olganda, inson ehtiyojlarining poyoni, cheki bormi? Javobingizni katta harflar bilan yozib, o'rab qo'ying.

2. 1-2-rasmlarda tasvirlangan har bir kishining qanday ehtiyojlar bo'lishi mumkin? Turli kishilar ehtiyojlarining har xil bo'lishi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?

3. 3-rasmda tasvirlangan qishloq oilasining qanday ehtiyojlar bor? Ularni to'la qondirish imkoniyati bormi?

4. 4-rasmda tasvirlangan shahar aholisining qanday ehtiyojlar bor deb o'ylaysiz? Ularni to'la qondirish imkoniyati bormi?

5. Mamlakatimiz aholisining qanday ijtimoiy ehtiyojlar bor? Ularning har biriga misollar keltiring.

6. Yuqorida aniqlangan yetishmovchiliklarning, muammolarning asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

MAVZU: TANLOV VA UNING MUQOBIL QIYMATI

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni tanlov va uning muqobil qiymati haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobilyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixozi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

TANLOV ZARURATI

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan barcha tavar xizniallarni ishlab chiqarishning imkon yo'q. Chunki iqtisodiy resrslar cheklangan. Shu bois nafaqat alohida olingan balki korxonalar va firmalar, davlat vajamiyat miqyosida ham cheklanganlik muammosiga duch kelinadi. Har qanday firma ham o'z faoliyatini kengaytirish payida bo'lib, ko'proq sifatli mahsulot turlarini ishlab chiqargisi keladi. Davlat ta'lim, sog'lioni sohalariga va atrof-muhit muhofazasiga imkonni boricha ko'proq mablag' ajratishni xohlaydi. Lekin, afsuski, imkoniyatlar, to'g'rirog'i, ishlab chiqarish resurslari cheklangan. Cheklanganlik muammosi bor ekanki, mayjud imkoniyatlardan birini tanlashga, ya'ni choklangan resursni nimaga sarflash haqida bir qarorga kelishga to'g'ri keladi. Tanlov, deb cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlashga aytildi.

TANLOVNING MUQOBIL QIYMATI

Biinkdan qarz olmoqchi bo'lgan firma oldida bu pullarga daslgoхlar sotib olib, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki eski dasgoh va binolarni ta'mirdan chiqarib, ishchilarining mehnat sharoitini yaxshilash muammosi turadi. Davlatdan 10 hektar yer oлgan fermer xo'jaligi oldida esa bahorda yerga qaysi ekinlarni muammosi ko'ndalang turadi. Shahar hokimiyati o'z ixtoyoridagi ma'lum miqdordagi mablag'ni yo'llarni ta'mirlash yangi mакtab qurishga sarflash haqida bosh gotiradi. Davlat miqyosida esa sog'lioni saqlash sohasiga ko'proq pul ajratish kerakmi yoki neftni qayta ishlash zavodini qurish kerakmi degan muammoga duch kelinadi. Yuqorida keltirilgan misollarda bir nechta imkoniyatdan bittasini tanlashga, qolganlaridan esa voz kechishga to'g'ri keladi. Tanloy natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naf keltiruvchi imkoniyatga tanlovnинг muqobil qiymati deb, aytildi

MUROSALI TANLOV

Tanlov amalga oshirilayotgan hamma hollarda ham imkoniyatlarning biri tanlanib, qolganlaridan voz kechilmaydi.

Sunday hollar ham bo'ladiki, tanlov amalga oshirilayotgan vaqtida hamma imkoniyatlar bilan ham murosaga qilishga to'g'ri keladi, ya'ni burcha imkoniyatlardan ham qisman-qisman foydalaniladi. Aytaylik tijorat bilan shug'ullanuvchi xususiy do'kon egasi Abdullaev 180000 so'mga ulgurji savdo firmasidan konfet yoki pecheniy sotib olmoqchi. Konfetning narxi 450 so'm bo'lib, 180000 so'mga undan jami 400 kilogramm sotib olish mumkin. Pecheniyning narxi esa 300 so'm bo'lib, 180000 so'mga jami 600 kilogramm pecheniy sotib olish mumkin. Lekin Abdullayev o'z mijozlarining ehtiyojlarini qondirish uchun konfet ham, pecheniy ham xarid qilishi kerak bo'ladi. Shu bois, Abdullayev yarim puli — 90000 so'mga 200 kilogramm konfet, qolgan yarmiga esa 300 kilogramm pecheniy sotib olishga qaror qildi. Ya'ni har ikkala imkoniyati bilan ham murosaga borib, ulardan qisman - qisman bo'lsa-da foydalandi. Bunday tanlov usuli iqtisodda "mutvsali" (yoki aralash) tanlov deb, yuritiladi.

Tayanch atamalar

Tanlov-cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlash.

Muqobil imkoniyatlar — birini tanlaganda qolgan-laridan voz kechila-cligan imkoniyatlar.

Tanlovnинг muqobil qiymati — tanlov natijasida voz kcchilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naflisi.

IVlurosali tanlov — bir vaqting o'zi-cla bir necha imkoniyatlardan qisman-qisman foydalanish.

ARASTU (Eramizdan avvalgi 384 - 322-yillar). Qadimgi yunon faylasufi.

Iqtisodiyotni fan sifatida qarab, uning ilk tushuncha va tamoyillarini yaratgan alloma.

Bu haqida o'ylab ko'ring!

Eng katta dunyoviy muammo resurslarning cheklanganligi emas, balki ulardan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanmayotganimizdir, degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

Buni yoddatuting!

Cheklanganlik muammosi odamlardan ehtiyojlari uchun zarur tovar tovara va xizmatlar orasidan ba'zilarini tanlashni taqozo etadi.

- *Xuddi odamlarga o'xshab, hukumat va jamiyat ham tanqislik sezadi, chunki ularning ham ehtiyojlari cheksiz, resurslari esa cheklangan bo'ladi.*

O'driyatlар!

1. Mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin ham sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ham ayamas", degan so'zlarini sharhlang.

2. Ota-bobolarimizning "biri kam dunyo" degan naqli nima haqida?

3. Rizq va nafs so'zlarini qanday tushunasiz?

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

Shohjahoning tug'ilgan kuniga dadasi o'ziga yoqqan biror narsa olish uchun 10000 so'm pul berdi. U anchadan beri portfel, yangi oyoq kiyimi(krossovka) va futbol to'pi sotib olmoqchi bo'lib yurgan edi. Shohjahon do'konlarni aylanib yurib, bu pulga o'zi xohlagan narsalardan faqat bittasini olish imkoniyati borligini aniqladi va nima olsam ekan, deb o'ylanib qoldi. Shohjahon uchta imkoniyatdan faqat bittasini tanlashga majbur. Iqtisodiyotda bunday imkoniyatlar muqobil imkoniyatlar, deb yuritiladi.

Aytaylik, Shohjahon uchun bu narsalarni sotib olish quyidagi tartibda qoniqish hissini beradi: 1) krossovka; 2) futbol to'pi; 3) portfel. Shu bois u krossovkani sotib oldi, chunki uning uchun bu eng katta qoniqish hissini beradi. Shohjahoning bu tanlovi futbol to'pi ola olmasligi bilan unga "qimmatga tushadi". Iqtisodchilar buni — tanloving muqobil qiymati, deb atashadi. Demak, Shohjahon tanlovingining, ya'ni krossovkaning muqobil qiymati — futbol to'pi bilan o'lchanadi.

1. Aytingchi, Shohjahon nima sababdan uch imkoniyatdan birini tanlashga majbur bo'ldi?

2. Shohjahon nima sababdan krossovkani tanlaadi?

3. Nega Shohjahon tanloving muqobil qiymati portfel bilan o'lchanmayapti?

4. Siz Shohjahoning o'rnida bo'lganingizda bu uch imkoniyatdan qaysi birini tanlagan bo'laredingiz? Nega?

5. Tanlovingizning muqobil qiymatini aniqlang.

BIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. O'quv qurollar do'koniga kirdingiz. Cho'ntagingizda 200 so'm pul bor. Pulingiz umumiy daftar yoki ruchka olishga yetadi. Siz bu narsalarning qaysi birini sotib olgan bo'lar edingiz? Nima sababdan? Tanlovingizning muqobil qiymati nimadan iborat

2. Kechqurin televizordan bir vaqtning o'zida 1-kanaldan Yulduz Usmonning konserti, 2-kanaldan esa O'zbekiston va Yaponiya komandalari o'rtasida futbol musobaqasi boshlanib qoldi. Siz qaysi kanaldagi ko'rsatuvni tomosha qilar edingiz? Bu hollatda tanlovingizning muqobil qiymati nima bo'ladi?

3. Nima sababdan odam uchun tanloving muqobil qiymatini bilishi zarur deb o'ylaysiz?

4 Aytaylik, tumaningiz markazida bo'sh yer maydoni bor. Hokimiyat bu yerga kasalxona, universam, tennis korti yoki maktab qurishi mumkin. Afsuski, bu maydonga faqat bitta munssasani qurish mumkin. Ikkinchisi tomondan esa, hokimlyntning faqatgina bitta muassasani qurishga mablag'i bor. Tanlash imkoniyati sizga berilganda edi, siz nimani qurishga qaror qilgan bo'lar edingiz? Tanlovingizni asoslang va uning muqobil qiymatini aniqlang.



1. Nima sababdan Orol dengizi shu holatga tushib qolgan?

2. Orol dengizning bu ahvolga tushib qolishining muqobil qiymati haqida nima deya olasiz?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

M,M,I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

A.Matmuratov.

MAVZU: ISHLAB CHIQARISH VA UNING OMILLARI

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni ishlab chiqarish va uning omillari haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixozи: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

ISHLAB CHIQARISH

Insonlaming o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy n'matlarni yaratish jarayoni ishlab chiqarish deb yuritiladi.

Iqtisodchilar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini ishlab chiqaruvchilar, ularni iste'mol qiluvchilarni esa iste'molchilar, deb atashadi.

Ishlab chiqaruvchilar odatda, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga bo'linadi. Moddiy sohada moddiy ko'rinishdagi mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqariladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga misol qilib, sanoatdagi zavod va fabrikalarni, qishloq xo'jaligidagi fermer va dehqon xo'jaliklari kabi turlituman korxonalarini keltirsa bo'ladi.

Ishlab chiqarishning nomoddiy sohasida esa, asosan turli xil ko'rinishdagi xizmatlar ko'rsatiladi.

Bular jumlasiga ta'lim, sog'liqni saqlash, yo'l xavfsizligi, mudofaa, maishiy va kommunal xizmat, madaniyat kabi sohalar kiradi.

Xizmatlarning moddiy ko'rinishdagi mahsulotlardan farqi, ularni moddiy narsalarni jamg'argan kabi omborda jamg'arib

Bo'lmaydi. Xizmatlar ishlab chiqarish jarayonining o'zidayoq istemol qilinadi, ya'ni ulardan foydalaniladi.

ISHLAB CHIQARISH OMILLARI

Ma'lumki, biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun resurslar kerak bo'ladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar faqat faqat manba, zahira sifatida emas, balki uni harakatga keltiruvchi, unga ta'sir etuvchi omil sifatida ham qaraladi. Shu sababli ishlab ishga jalb etilgan resurslarni boshqacha - ishlab chiqarish omillari deb, liam atashadi.

Resurslar, odatda tabiiy, kapital va mehnat resurslariga bo'linadi. Tabiiy resurslarga havo, suv, quyoshdan kelayotgan issiqlik va yorug'lik, yer maydoni, yer osti va yer ustidan boyliklari, o'simlliklar va hayvonot dunyosi, xullas odamlar ehtiyoji uchun asqotadigan tabiatning barcha ne'matlari kiradi.

Kupital resurslar deb, inson tomonidan yaratilgan va boshqa, mahsulot turlarini yaratishga jalb etiladigan resurslarga aytildi. Iqtisodchilar ularni boshqacha - ishlab chiqarish vositalari, deb ham atashadi. Ularga bino va inshootlar, asbob-uskuna va mashina-mexanizimar, turli-tuman dastgohlar va jihozlar, xomashyolar va boshqa son-sanoqsiz turdag'i narsalar kiradi. Mehnat resurslari. Deganda, mehnat qilishga layoqatli kishilar, ularning bilimi, ish - tajribasi va mehnat mahorati bilan birgalikda tushuniladi.

TADBIRKORLIK

Keyingi paytlarda ishlab chiqarishning tabiiy, mehnat va kapital omillari qatoriga to'rtinchchi omil - odamlarning iqtisodiy qaror qabul qilishi, ishlab chiqarishni uyushtirishi va tashkil qilishi bilan bog'liq faoliyati - tadbirkorlikni ham kiritishmoqda.

Qurilish uchun eng zarur bo'lgan sement ishlab chiqarishni tashkil qilish misolida uning bilan bog'liq omillarni aniqlaylik. Ma'lumki, sement ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun birinchidan, tabiiy resurs - yer maydoni va sement olinadigan tog'jinsi bo'lishi kerak. Ikkinchidan, sement ishlab chiqarish uchun mehnat resurslari - odamlar - ishchi kuchi bo'lishi lo-zimyMehnat omili - odamlarsiz, ularning jismoniy kuchisiz, aqli va malakasisiz hech narsa qilib bo'lmaydi. Uchinchidan, tog'jinslariga ishlov berishda qo'llaniladigan asbob-uskuna, bino va inshootlar, ya'ni kapital resurslar ham bo'lishi kerak.

Bu omillarni o'zaro birlashtirish to'rtinchchi omil — tadbirkorlik evaziga amalgga oshiriladi. Tadbirkor sement ishlab chiqarish imkoniyatlariini hammaclan oldin ko'rib, tashabbusni qo'lga oladi. Bu ishni amalgga oshirish uchun uchala omilni birlashtiradi. Bor resurslami jalb etadi, kuch-g'ayrati, bilimi va ma'lum ma'noda tavakkal qilib, ishbilarmonligini ishga soladi. Oxir-oqibat uning xatti - xarakatlari, tadbirkorligi sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga sababchi — omil bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish tabiiy, mehnat,

kapital va tadbirkorlik omillari ning birlashishidan yuzaga kelar ekan. Bozor iqtisodiyoti sharoiti da tadbirkorlik omili alohida ahamiyat kasb etadi.

Topshiriq Oddiy qalam ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayon zanjirini mantiqiy ketma-ketlikda imkonli boricha to'laroq quring. Bu jarayonda ishtirok etayotgan barcha tabiiy, kapital va mehnat resurslarining ro'yxatini tuzing. Bu jarayonda tadbirkorlik omili qaysi ko'rinishda va qaysi bo'g'lnlarda paydo bo'lishi mumkinligini aniqlang.

Iqtisodiy huquq asoslari: Yer usti, yer osti boyllklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqi tabiiy zaxiralalar, umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foyclnlanish zaruz va ular davlat muholifazasidadir. O'zbekiston Rtspubllkaai Konstitutslyaslnng 55-moddosl,

Tayanch atamalar

Ishlab chiqarish - inson ehtiyojlarini qondirish maqsaclida iqtisodiy ne'matlar yaratish jarayoni.

Ishlab chiqaruv-chilar - iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxo-nalar.

Isle'molchilar - iqtisodiy ne'matlarni iste'mol qiluvchilar.

Tabiiy resurslar - tovarva xizmatlar ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan tabiatning barcha tie'mallari.

Kupital resurs - Inson tomonimian yaratilgan va boshqa mahsuloi turlarini yaialishga jalb ettladlgan resurslar.

Mehtat resurslari - mehnat qilishda layoqalli kislnlar, ularning bilimini, ish tajribasi va mehnat mahotali

Tadbirkorlik — odamlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishi bilan bog'liq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati.

Bu haqda o'ylab ko'ring!

1. Tikuvchilik fabrikasi misolida ishlab chiqarish zanjirini tuzing.
2. Tikuvchilik ishlab chiqarish jarayonida ishga solingan har bir resursmturlarini sanang.
3. Respublikamizda tamaki ishlab chiqarishni to'xtatish haqidagi qaror qanday oqibatlarga olib kelrshi mumkin?

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yuqoridagi rasmlar asosida erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarish bilan bog'liq ishlab chiqarish korxonalari ro'yxatini tuzing.
2. Rasmdagi korxonalardan tashqari yana qanday korxonalar ni bu ro'yxatga qo'shish mumkin?
3. Chigitekishdan boshlab, toki ko'ylakning iste'molchiga boribj yetishigacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining zanjirini I mantiqiy ketma-ketlikda quring.
4. Birgina erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarishda qanday: a) tabiiy; b) kapital; d) mehnat resurslari ishlatilayotganini aniqlang

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Tumaningizdagi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish koi xonalarini sanang.
2. Tumaningizdagи biror korxona misolida bu korxonaning qanday resurs turlarini iste'mol qilayotganini gapirib bering. Bu korxona misolida tadbirkorlik omili qanday namoyon bo'ladi.
3. Tadbirkorlik va mehnat omili orasida qanday farq bor?
4. Asaka shahridagi "O'zDEUavto" qo'shma korxonasining ishga tushirilishi natijasida o'tgan yillar mobaynida respublikamizda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Bu respublika miqyosidagi iqtisodiy yechimning qimmati nimalarda namoyon bo'lmoqda?'
5. Nima sababdan respublikamiz hozirdayetishtirilgan paxtaninp, ko'p qismini chet elga sotyapti? Paxtani xomashyo sifatida sotish haqidagi qarorni tahlil qiling.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

M,M,I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

A.Matmuratov.

MAVZU: IQTISODIY TIZIMLAR

Ta'limiylar maqsadi: O'quvchilarni iqtisodiy tizimlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol - javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

HJIISODIYOTNING UCH ASOSIY SAVOLI

Ma'lumki qanday davlatda, jamiyatda iqtisodiyotning asosiy vazifasi resurslarning taqchilligi sharoitida mavjud resurslardan faydalinishning eng samarali va oqilona yo'llarini tanlab, mamlakat foqarolarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishdan iborat. Bu maqsadda iqtisodiyotning quyidagi uchta asosiy savoliga javo topis muammosiga duch kelinadi: Nima? Qanday? Kim?

Tayanch atamalar Markazlashgan rejali iqtisodiyot - deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat tasarrufida bo'lib, iqtisodiy yechimlar markazlashgan holda davlat tomonidan qabul qilinadigan va rejaga ko'ra amalga oshiriladigan iqtisodiy tizim.

Aralash iqtisodiyot — bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning maqbul tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan iqtisodiy tizim.

Buning uchun savol har qanday iqtisodiy tizim — mamlakatdagi ihi ini xo'jalik yuritish tizimi uchun umumiyoq bo'lib, uni har bir tizim o'rtaq, turlicha hal qiladi. Tizimlar bu muammoni qanday halqilishga qarab an'anaviy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, markazlashgan rejali iqtisodiyot va aralash iqtisodiyot kabi turlarga

AN'ANAVIY IQTISODIYOT

An'anaviy iqtisodiyot tizimi — Nima? Qanday? Kim uchun? Degan savollarga jamiyatda saqlanib kelayotgan yuz yillik an'analarga muvofiq javob beradi. Mahsulot ota-bobolardan meros bo'lib kelayotgan usullar yordarnida ishlab chiqariladi, eski urf-odatlarga ko'ra taqsimlanadi. Bunday iqtisodiyot turijuda qadimgi bo'lib, natural xo'jalik paydo bo'lishi bilan boshlangan. Hozirda esa qolqoq, dlinyndun ajralib yashayotgan, tashqi dunyo bilan aloqa qilish va borish qiyin bo'lgan tundra, Afrika va Amazonka

Changalzorlari, Sibir taygalari, okeanlardagi kichik orolchalarda va baland tog'larda istiqomat qilayotgan jamoa va qabilalarda uchratish mumkm.

ishlab chiqarish kerak?

Qaysi tovar qanday hajmda ishlab chiqariladi?

Tovarlar kim tomonidan, qanday resurslarva texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi?

Ishlab chiqarilgan tovarlar kim tomonidan sotib olinadi va daromad qanday taqsimlanadi?

BOZOR IQTISODIYOTI

Bu iqtisodiy tizimda deyarli barcha ishlab chiqarish vositalal xususiy korxonalar, shaxslar qo'lida boiib, barcha iqtisodiy yechimlar iste'molchi va ishlab chiqaruvchi sifatida qatnashuvvel shaxslar tomonidan erkin qabul qilinadi. Nimadan, qanchi miqdorda ishlab chiqarish masalasi talab va taklifga asoslangan bozor mexanizmi yordamida aniqlanadi. (Bu mexanizm haqidagi keyinroq batafsil to'xtalamiz). Masalan, iste'molchilarda tamakil sotib olishga bo'lgan xohish, ya'ni talab bo'lmasa, fermer xo'jj liklari tamaki ekmay xo'yishadi, chunki uni hech kim sotib ol maydi va undan foyda yo'q. Uning o'rniga esa foydaliroq bo'lgan don ekinlari ekishadi va hokazo.

MARKAZLASHGAN REJALI IQTISODIYOT

Bu iqtisodiy tizimda deyarli barcha ishlab chiqarish vosilala davlat tasarrufida bo'lib, barcha iqtisodiy yechimlar, nimani qanci miqdorda ishlab chiqarish masalasi hukumat tomonidan ma kazlashgan holda yechiladi. Shuningdek, bu mahsulotlarni qaytariqa ishlab chiqarish ham oldindan rejalashtirilib, marka'il o'tirgan bir guruh mutaxassislar tomonidan hal qilinadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot hukumat tomonidan taqsimlanadi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda davlat ixtiyorida qoldiriladi va u hail rejaga asosan taqsimlanadi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimi sobiq ittifoq va qator sotsialistik davlatlarida mavjud edi.

Tayanch atamalar Iqtisodiy tizim - jamiyat (mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakji.

An'anaviy iqtisodiyot - iqtisodiyotning asosiy savollariga jamiyatdagi an'analarga asoslanib javob beradigan iqtisodiy tizim.

Bozor iqtisodiyoti - xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy qarorlar erkin qabul qilmadigan, iqtisodiy ne'matlar esabozorlar yordarnida taqsimlanadigan iqtisodiy tizim.

Bu haqda o'vlab ko'ring!

Sobiq ittifoq mam-lakatlarida nima sababdan ba'zi qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari sun'iy ravishda arzon narxda solilsada, o'sha paytlaicla zeb-ziynat buyumlari hisoblangan avtomobil, gilam, billur idisli kabi buyumlar asossiz ravishda qimmat bahoda sotilgan

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

Mayzu: I bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar

Ta'limiylar maqsadi: O'quvchilarni I bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar bajarish haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

A. SAVOLLAR.

1. Respublikamiz nima sababdan rejali, markazlashgan va buyruqbozlikka asoslangal iqtisodiyotdan voz kechib, bozor iqtisodiyotiga o'tmoqda? O'zbekistonning bozol iqtisodiyotiga o'tishining besh tamoyili haqida nimalar bilasiz?
2. Nima sababdan oxirgi paytlarda iqtisodiyotni o'rganmoqchi bo'lganlar soni ko'payilj bormoqda?
3. Iqtisodiyotni faqat iqtisodchilar bilishi kerakmi?
4. Kundalik turmushda iqtisodiy bilimlar qachon va qanday vaziyatlarda kerak bo'ladil Misollar keltiring.
5. Nega inson ehtiyojlarining poyoni yo'q?
6. Cheklanganlik muammosining mohiyati nimadan iborat?
7. Cheklanganlik muammosiga 5 ta misol keltiring.
8. Tanlov va uning muqobil qiymati nima?
9. Mehnat unumdorligini oshiraverib, cheklanganlik muammosini hal qilish mumkinmi?
10. Mehnat unumdorligini oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nimadan iborat?
11. Mehnat unumdorligining oshishi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkinmi?
12. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning afzalliklari va kamchiliklarini sanang.
13. Ixtisoslashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
14. Hududiy ixtisoslashuv nima sababdan kelib chiqqan?
15. Nima? Qanday? Kim uchun? Bu savollar qanday muammolarni o'z ichiga oladi?
16. Iqtisodiy tizimlar bir-biridan nima bilan farqlanadi?
17. Bozor iqtisodiyoti tizimi Nima? Qanday? Kim uchun? degan savollarga qay tarzda javob berishini tushuntirib bering. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanang,
18. Aralash iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga nimalar sababchi bo'lgan deb o'ylaysiz;
19. Aralash iqtisodiyot sharoitidagi davlatning roli nimalardan iborat bo'lishi kerak deb! o'ylaysiz? Nega?
20. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'rganadigan iqtisodiy muammolarga 5 tadan misol keltiring.
21. Quyidagi jumlalarning qaysi biri to'g'ri?
 - a) mikroiqtisodiyot alohida olingen firmalar faoliyatini o'rganadi;
 - b) inflatsiya sur'atining oshishi makroiqtisodiy masala hisoblanadi;
 - d) ixtisoslashishdan ko'zlangan asosiy maqsad - mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil qilish;
 - e) tanloving muqobil qiymati voz kechilgan barcha imkoniyatlardir.

B. TOPSHIRIQLAR.

Quyida avval atamalarning nomlari, so'ng ularning talqinlari berilgan. Har bir atamaga mos talqinni topib, atama raqami yoniga mos talqin harfini yozib chiqing.

ATAMALAR:

1. Ehtiyoj.
2. Shaxsiy ehtiyojlar.
3. Ijtimoiy ehtiyojlar.
4. Resurslar.
5. Ishlab chiqarish.
6. Xizmatlar
7. Cheklanganlik muamosi
8. Tanlov.
9. Tanloving muqobil
10. Tadbirkorlik.
11. Texnologiya.
12. Ixtisoslashuv.
13. Hududiy ixtisoslashuv.
14. Mahsuldarlik.
15. Mehnat taqsimoti.
16. Iqtisodiy tizim.
17. An'anaviy muammosi. iqtisodiyot.
18. Bozor iqtisodiyoti.
19. Markazlashgan rejali qiymati. iqtisodiyot.
20. Aralash iqtisodiyot.

TALQINLAR:

- a) Iqtisodiy ne'matlarni yaratish jarayoni;
- b) kishilarning yonma-yon, hamjihatlikda hayot kechirishi bilan bog'liq, bиргалашуб qondiradigan umumiylar ehtiyojlar;
- d) hiiilov natijasida voz kechilgan, eng katta naqfa ega bo'lgan imkoniyat;
- e) moddiy narsa yaratmaydigan, lekin natijasi ehtiyojlamasi qondiradigan faoliyat yoki xatti - harakatlar;
- f). cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlash;
- g) isonniig muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga mhtojligi;

- h) ehliyoyjlarni to'la qondirish uchun resurslarning yetarli darajada mavjud emasligi;
- i) inson ehtiyojlarini qondirish uchun asqotadigan barcha narsalar;
- j) flohida olingan shaxsgagina tegishli bo'lgan ehtiyojlar;
- k) biror maxsulot turini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti;
- l) resurs birligidan foydalanib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;
- m) odamlarning foya olish maqsadida iqtisodiy qarorlar qabul qilishi bilan bog'liq Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati; n) tavar ishlab chiqarish jarayonini ishchilar o'rtaida ishni taqsimlash asosida tashkil qilish ;
- o) sharoit, an'analari, mahalliy imkoniyatlar tufayli butun bir hudud mahsulotning , biror turini ishlab chiqarishga moslashuvi;
- p) mahsulot ishlab chiqarishda qaysi resurslardan qanday foydalanish, qanday usul va ketma – ketlikda ishlov berish yo'l-yo'rig'i;
- q) bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning maqbul tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy iqtisodiy tizim;
- r) xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy qarorlar erkin qabul qilinadigan, iqtisodiy ne'matlar esa bozorlar yordamida taqsimlanadigan iqtisodiy tizim;
- s) jamiyat (mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakli;
- t) iqtisodiyotning asosiy savollariga jamiyatda an'analarga asoslanib javob beradigan iqtisodiy tizim;
- u) deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat tasarrufida bo'lib, iqtisodiy yechimlar markazlashgan holda davlat tomonidan qabul qilinadigan va rejaga ko'ra amalga oshiriladigan iqtisodiy tizim.

D. TESTLAR.

Berilgan savolga mohiyat jihatdan eng to'g'ri va to'liq javobni belgilang.

- 1. Ehtiyoj – bu:** A) insonning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga muhtojligi
B) kundalik ehtiyoj mollari do'konida sotiladigan barcha tovarlar D) kishilarning tovar va xizmatlarga ega bo'lish xohishi E) qondirishning imkon bo'lмаган orzu-istaklar F) qondirilishi talab etiladigan har qanday muhtojlik
- 2. Cheklanganlik muammosi qaysi vaziyatda to'g'riroq ifodalangan?** A) har qanday mamlakatda iqtisodiyotda ham hamma vaqt nimadir yetishmaydi B) hamma vaqt insonning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun resurslar yetarli bo'lavermaydi D) kambag'al mamlakatlarda boy mamlakatlarga qaraganda ko'proq resurslar yetishmaydi E) biror resurs qanchalik kam bo'lsa, u shunchalik tanqis bo'ladi F) "Ro'zg'or – g'or", deganlaridek, oilada har doim nimadir yetishmaydi
- 3. Tanloving muqobil qiymati – bu:** A) imkoniyatlar ichida eng nafliligi B) imkoniyatlar ichida nafliligi jihatdan ikkinchi o'rinda turadi D) tanlov natijasida voz kechilgan, eng katta nafga ega bo'lgan imkoniyat E) tanlangan imkoniyatning o'zi F) tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatning barchasi
- 4. To'g'ri jumlanı toping. Inson ehtiyojları ...** A) cheklangan, chunki inson chekli vaqt oralig'ida hayot kechiradi B) cheklangan, chunki resurslar cheklangan D) poyonsiz, chunki biz yashayotgan makonning chegarasi yo'q E) poyonsiz, chunki inson orzu-istaklarining cheki yo'q F) cheklangan, chunki inson hayot kechirishi uchun ko'p narsa kerak emas
- 5. Qaysi guruhda keltirilgan misol faqat ma'naviy ehtiyojlarga tegishli:** A) daftar, non, kitob, televizor, xat yozish B) muzqaymoq, kompyuter, ta'lim olish, sport D) rasm chizish, kino ko'rish, kankulyator E) til o'ganish, kitob o'qish, telifonda gaplashish, qalam F) ta'lim olish, musiqa eshitish, kasb-hunar o'rganish, odobli bo'lish
- 6. Qaysi guruhda keltirilgan misol faqat ijtimoiy ehtiyojlarga tegishli:** A) mudofaa, sog'lioni saqsash tizimi, telefon tarmog'I, kutubxona, muzey B) yo'l, jamoat transporti, muktab, kiyim-kechak, qo'l soati D) tarixiy yodgorliklar, kasalxona, xususiy do'kon, metro, velosiped E) qo'riqxona, daryo, istirohat bog'i, soliq xizmati, shaxsiy avtomobil F) militsiya xizmati, tez yordam xizmati, vazirlilik, bolalar bog'chasi, shaxsiy kompyuter
- 7. Iqtisodiyotni nima sababdan o'rganamiz?** A) iqtisodiyotni bilgan odam jamiyatni yaxshi tushunadi B) Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri D) iqtisodiyotni bilgan odam yaxshi tadbirdor bo'ladi E) iqtisodiyotni yaxshi bilgan odam oqilonqa iqtisodiy qaror qabul qila oladi F) iqtisodiyotni bilgan odam tejamli bo'ladi
- 8. Fermer dalasiga bug'doy eksa 40 t, sholi eksa 80 t hosil olishi mumkin. Bir tonna bug'doyning muqobil qiymati nima?** A) aniqlash mumkin emas, chunki qanday bug'doy yoki sholi ekilgani no'malum B) 0,5 tonna sholi D) 4 tonna sholi E) aniqlash mumkin emas, chunki narxlar no'malum F) 2 tonna sholi
- 9. Noto'g'ri jumlanı aniqlang.** A) barcha iqtisodiy tizimlar tanlov muammosiga duch keladi B) inson ma'naviy ehtiyojlarisiz to'laqonli hayot kechira olmaydi D) inson ehtiyojlarini poyoni yo'q E) inson cheksiz dunyoda yashaydi, shu bois iqtisodiy resurslarning ham poyoni yo'q F) ishlab chiqarish – bu iqtisodiy ne'matlarni yaratish jarayonidir
- 10. Iqtisodiyotning asosiy muammosi – bu:** A) tabiiy resurslarning cheklanganligi B) inson ehtiyojlarining cheksizligi D) resurslardan tejab-tergab foydalanish E) inson ehtiyojlarini qondirish F) insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun zarur resurslarning cheklanganligi
- 11. Ishlab chiqarish omillari – bu:** F) tabiiy omil, mehnat omili, capital va tadbirdor omillari B) mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv D) faqat bino, inshootlar, sabob-uskunalar va dastgoh E) faqat ishchilar malakasi va texnologiya F) mehnat unumdorligi va samaradorlik

12. Quyidagi guruhlardan qaysi birida ishlab chiqarish resurslarining har uchlasidan misollar keltirilgan?

A) dala, traktor, paxta B) neft, zavod, ishchi D) ofis, menejer, boshliq E) kompyuter, dasturchi, printer

F) yer o'rmon o'rmonchi

13. Qaysi ta'rif umumiyoq keltirilgan? Mehnat unumdarligi – bu: A) bitta ishchi ishlab chiqargan mahsulot hajmi
B) vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan tovar miqdori D) bir resurs birligidan foydalanib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori E) bitta ishchi ishlab chiqargan mahsulotning puldagi qiymati F) vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan tovarning puldagi qiymati

14. Mehnat taqsimoti: A) narxlarning oshishiga olib keladi B) mehnat unumdarligini kamaytiradi D) daromadni tekisroq taqsimlash imkoniyatini yaratadi E) mehnat unumdarligini oshiradi F) ishchilarning mehnat faoliyatini fag'batlantiradi

15. Mehnat unumdarligiga nima ta'sir qiladi? A) texnologiyalarni qo'llash B) fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish D) ixtisoslashuv E) ishchilarning kasb mahorati F) Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri

16. Har qanda tizim oldida turgan eng asosiy muammo - bu: A) cheklanganlik B) ishlab chiqarish D) iste'mol E) taqsimot F) ayirkoshlash

17. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri markazlashgan rejali iqtisodiyotga xos emas?

A) rejali ishlab chiqarish B) erkin narxlar D) buyruqbozlik E) tayinlangan narxlar F) markazlashgan taqsimot

18. Bozor iqtisodiyoti sharoitida: A) davlat mulkiga ustivorlik beriladi B) davlat yagona mulkdor bo'lib qoladi D) mulkning asosiy qismi xususiy shaxslar qo'lida bo'ladi E) mulkka nisbatan monopoliya saqlanib qoladi F) mulk o'z mohiyatini yo'qotadi

19. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz? A) sotuvchi va xaridor o'rtasida narxni bozor tomonidan belgilanishi natijasidagi iqtisodiyot B) oila-uy xo'jaligini yuritishda bozor munosabatlari hisobga olish D) kishilar o'rtasidagi erkin iqtisodiy aloqa, muomala E) bozor munosabatlari qoidalari asosida boshqariladigan bozor F) bozor tamoyillari asosida tashqi iqtisodiy aloqa

20. "Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak?" degan muammoga qayerda duch kelinadi? A) faqat an'anaviy iqtisodiyotda B) faqat markazlashgan rejali iqtisodiyotda faqat bozor iqtisodiyotida D) faqat bozor iqtisodiyotida E) faqat aralash iqtisodiyotda F) har qanday iqtisodiy tizimda

21. Agar ishlab chiqaruvchi barcha resurslarini ishga solsa, ko'pi bilan 100 dona A tovardan va 200 dona B tovardan ishlab chiqariladi. A tovardan 120 dona ishlab chiqarishga qanday erishish mumkin? A) B tovari ishlab chiqarishni kamaytirish evaziga erishish mumkin B) qattiq tejamkorlik asosida bunga erishish mumkin D) hech bir sharoitda bunga erishib bo'lmaydi E) faqat qo'shimcha sarmoya sarflab erishish mumkin F) to'g'ri javob yo'q

22. Aralash iqtisodiyotda qaysi iqtisodiy tizimlarning elementlarini o'z ichiga oladi? A) faqat markazlashgan va an'anaviy iqtisodiyotning B) markazlashgan va bozor iqtisodiyotning

D) hech qaysi iqtisodiy tizimning E) hamma iqtisodiyot tizimning F) faqat an'anaviy va bozor iqtisodiyotning

23. Quyida keltirilgan ishlab chiqarishni tashkil qilishda mehnat taqsimoti amalgam oshirilgan? A) biri fabrika oshxona mebeli, ikkinchisi esa yotoqxona uchun yumshoq mebel ishlab chiqaradi B) bir fabrika kompyuter, ikkinchisi esa printer ishlab chiqaradi D) bir bo'yochchi devorni bo'yashga tayyorlashdi, ikkinchisi devorni bo'yaydi E) Braziliya kofe, Hindiston choy ishlab chiqaradi F) to'g'ri javob yo'q

24. Qaysi holatda mehnat unumdarligi yuqori? A) 12 ishchi 120 ta detal tayyorlaydi B) 8 ishchi 95 ta detal tayyorlaydi D) 20 ishchi 200 ta detal tayyorlaydi E) 11 ishchi 105 ta detal tayyorlaydi F) 125 ishchi 1000 ta detal tayyorlaydi

25. Mulkka egalik qiluvchi shaxs kim A) Sotuvchi B) Tadbirkor D) Istemolchi E) Raqobatchi F) Mulkdor

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

MAVZU :AYRIBOSHLASH VA PUL

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni ayriboshlash va pul haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lган malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobilyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixози: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Qadimda odamlar qabila-qabila bo'lib yashaganlar. Har bir qabila o'zi uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlarini, kiyim -kechaklarni va oddiy ish qurollarini o'zi ishlab chiqargan va o'zi iste'mol qilgan. Bunday xo'jalik iqtisodning eng dastlabki shakli bo'lib, u natural xo'jalik, deb yuritiladi. Natural xo'jalikning har bira'zosi asta-sekin rnuayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga moslasha borgan. Vaqt o'tishi bilan har bir kasb egasi o'z mahsulotlarini boshqalar bilan ma'lum nisbatda almashtira boshlagan. Bu jarayonni iqtisodda ayirboshlash (yoki barter) deb atashadi. Ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar, deb ataladi. Aytaylik, yuqoridagi rasmda tasvirlangan etikdo'zga non, novvoyga un, tegirmonchiga bug'doy, dehqonga o'roq va temirchiga etik kerak bo'lsin.

1. Bu holatda etikdo'z birgina nonga bo'lган ehtiyojini qondirish uchun o'zi tikkan etikni qay tariqa nonga almashtira olgan deb o'ylaysiz?

2. Bu ayirboshlash jarayonini qanday osonlashtirish mumkin?

3. Yuqorida keltirilgan mahsulotlar ichidan qaysi biriga hamma o'z mahsulotini jon-jon deb almashtirishga rozi?

4. Yuqorida keltirilgan mahsulotlarning birortasi boshqa maxsulot va xizmatlar uchun to'loymi amalga oshirishga mo'ljallangan universal ayirboshlov vositasi(pul) sifatida tanlanda edi, etikdo'zo'zining nonga bo'lган ehtiyojini qanday qondirgan bo'lar edi?

5. Non va bug'doyning universal ayirboshlash vositasi(pul) ilfnida qanday ijobiylar salbiy tomonlari bor ekanligini Tttalang.

Mulohaza uchun mavzu

"Pul- bu qo'l-ning kiri", "Puling bo'lsa, changalda sho'rva", - kabi iboralarga o'z mu-nosabatingizni bildiring.

Pul

Natural xo'jalik davrida hamma o'zi ishlab chiqargan mahsulotini jon-jon deb almashtiradigan hammabop (universal) maxsys tovarga - pulga ehtiyoj paydo bo'lgan. Bunday maxsus tavar - pul rolini turli hududlarda, turli davrlarda turli xil tovarlar o'yнagan. Masalan, Qadimgi Yunonistonda, Rimda, arab va hind qabillarida pul rolini chorva mollari bajargan. Shimoliy mamlakatlarda - mo'yna va teri, Afrika xalqlarida - chig'anoqlar va fil suyaklari, Qadimgi Misrda - bug'doy, Xitoyda - tuz, Mug'ilistonda - choy pul vazifasini bajargan. Odamlar metallni qayta Kelashni o'rganib olganlaridan so'ng metallpullar paydo bo'lga. Keyinchalik, muomalada qimmatbaho metallar, oltin va kumushdan yasalgan pullar paydo bo'lgan.

Tuili xil og'irlikka ega bo'lgan oltin va kumush bo'laklari pul sifatida ishlatilganda, har safar ularni tarozida tortishga to'g'ri kelgan. Bu noqulaylikni bartaraf etish uchun ma'lum og'irlikka va shakilga bo'lgan va turli xil muhrlar urilgan tangalar muomalaga keltirilgan. Vaqt o'tishi bilan tangalarning ham kamchiliklari ko'rinish qolgan. Oltin va kumush tangalar qo'ldan qo'lga o'tib yeyilgan va yengillashib qolgan. Bu esa o'z navbatida ularning boshlang'ich qiymati, ya'ni boshqa tovarlar bilan ayirboshlash

qobilyatlarining kamayishiga olib kelgan. Bu muammoni yechishga bo'lgan harakatlar natijasida qog'ozpullarpaydo bo'lgan. Birinchi qog'oz pullar 812- yilda Xitoyda zarb qilingan, keyinchalik esa boshqa davlatlarda ham chiqarila boshlangan.

PULNING XUSUSIYATLARI

Turli hududlarda turli narsalar pul sifatida ishlatilgan bo'lsada, aslida pul sifatida ishlatilgan narsa quyidagi xususiyatlarga, sifatlarga ega bo'lishi lozim: odamlar o'zлari bilan olib yurishlari uchun qulayroq va yengilroq, ya'ni ixcham bo'lishi; pishiq, barqaror va chidamli materialdan bo'lishi, vaqt

Topshiriq Qaysi davlatlarning pul birliklarini bilasiz?

Tegishli rna'lumot manbalari, gazeta va jurnallar sahifalaridan turli davlat pullari haqida imkonи boricha ko'proq rna'lumot yig'ing va referat yozing.

o'tishi bilan o'z sifatini va miqdorini yo'qotmasligi;

- tabiatda kamyob bolishi, hammaning unga erishishga bo'lgan imkoniyati cheklangan bo'lishi;

- bir jinsli materialdan bo'lib, oson bo'laklarga bo'linishi va bu bo'laklar katta-kichikligiga qarab mos qiymatga ega bo'lishi;

- oson taniladigan va uni soxtalashitirish qiyin bo'lishi.

PULNING VAZIFALARI

Yuqorida ta'kidlaganimizdek birinchidan. pul bu muomaki vositasidir. Pul yordamida tovarlar bir-biri bilan ayirboshlanadi. Natijada tovar - pul almashuvi amalgga oshiriladi. Ikkinchidan, pul bu tovar qiymatining oichov vositasidir. Har bir tovarning qiymati pul yordamida o'lchanadi. Tovarning pulda ifodalangan qiymati uning narXinibeglaydi. Uchinchidan, pul boylik jamg'arish vositasidir. Tovarni pulga almashib, tushgan pulga boshqii tovar olmasdan, uni ma'lum vaqtgacha saqlash, ya'ni jamg'arish murnkin.

Pul - mahsulot va xizmatlar uchun to'loymi amalga oshirishga mo'ljallangan universal ayirboshlov vositasi.

Narx -bir birlik tovar yoki xizmat uchun xaridor to'lashga, sotuvchi esa sotishga rozi pul miqdori. Tovar – ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot.

Buni yodda tuting

- *Pul barcha tovar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo'lgan tovardir.*
- *Pul insoniyatning eng katta kashfiyotlaridan biridir.*
- *Pul muomala, oichov vajamg'arish vositasidir.*
- *Pul - iqtisodiyotning "qoni".*
- *Odamlar ma'lum manfaatlarni ko'zlab tovar va xizmatlarni ayirboshlaydilar.*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Bozordan yoki do'kondan biror narsa sotib olganingizni tasvirlab bering. Nima sababdan bunday ayirboshlashga ro'i boiganingizni tushuntirib bering.
 - 2.Pul bo'limgan davrlarda mahsulotlarni ayirboshlash jarayonidii qanday qiyinchiliklar boiganligini tushuntiring.
 - 3.Oltin tangalar misolida pul o'z vazifasini qanday bajarganligini tasvirlab bering.
 - 4.Har qanday narsa ham pul vazifasini bajara oladimi?
 - 5.Qum pul vazifasini bajara oladimi? Nega? Olmoschi?
 - 6.Pulning har bir vazifasini yaqqol ko'rsatuvchi hayotiy misollar keltiring
 - 7.Sizningcha pul qanday xususiyatlarga ega bo'lmo'gi kerak?
 - 8.Hozirgi davrda pul yordamida odamlar qanday yumushlarni bajarishayapti?
 - 9.Qog'oz pullarning qanday kamchiliklari bor, deb o'ylaysiz?
- Bu tengdoshingiz nimadan foydalan-moqda?*
- Zamonaviy pullar — plastik kartochkalar haqida nima bilasiz?*

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

MAVZU :BOZOR VA UNING TURLARI

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni bozor va uning turlari haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va targatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

Oldi-sotdi jarayoni - tovar va xizmatlar pulga, pul esa tovar va xizmatlarga ayirboshlanadigan jarayon.

Bozor - xaridor va sotuvchilar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirish uchun uchrashadigan makon.

Sotuvchi - bozorda tovarini pulga almashadigan, tovari sotadigan tomon.

Xaridor - bozorda pulini tovarga almashadigan, tovari sotib oladigan tomon

1. J-fismida tasvirlangan dehqon bozoridagi odamlarni qanday ikki toifaga ajratish mumkin?

2. Bozorda kimlar sotuvchi yoki xaridor sifatida qatnashyapti? Ularning maqsadlari nimadan iborat?

3. Yuqorida rasmlarda nimalar tasvirlanganligini aniqlang. Ularning umumiy jihatni nimadan iborat? Ularda nima sodir bo'lyapti? Ularning qaysi birlarini bozordesha bo'ladi?

4. Yana qanday bozorlarni bilasiz?

5. Bozorda biror narsani sotib olayotganingizda (yoki sotayotganingizda) uning narxini kim belgilagani haqida o'ylab ko'rghanmisiz? Sizningcha tovar va xizmatlar narxi kim tomonidan belgilanadi?

6. Yuqorida mulohazalardan kelib chiqib, bozor bajaradigan vazifalar ro'yxatini tuzing.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Sharqning qomuschi olimi, alloma. Iqtisodiyot faniga o'zining ilmiy qarashlari bilan katta hissa 40'shgan.

BOZOR

Siz odamlar bilan gayjum, savdo-sotiq amalga oshiriladigan, alohida ajratilgan joy sifatidagi dehqon bozori, avtomobil bozori, kiyim-kechak va buyumlar bozori kabi bozorlarni yaxshi bilasiz. Bozor - sotuvchi va xaridorlar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirish uchun uchrashadigan makon.

Bozor uchun har doim ham alohida ajratilgan joyning bo'lishi shart emas. Oldi-sotdi jarayoni telefon va internet tarmog'i orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ma'lumki, bozor - tovar xo'jaligining asosini tashkil qiladi. Tovar - boshqalar uchun ishlab chiqarilar ekan uni sotish, boshqa narsaga ayirboshlash uchun bozorning boiishi shart.

BOZORNING VAZIFALARI

Bozorning eng asosiy vazifalaridan biri - ishlab chiqarish va iste'molni bir-biriga bog'lashdan, ular orasida vositachilik qilishdan iborat.

Bozorning ikkinchi vazifasi - oldi-sotdi jarayoni orqali tovarning (sotuvchini ham, xaridorni ham qanoatlantiruvchi) xolisona haqiqiy bahosi - narxini belgilashdan iborat. Tovarni mo'ljalidan ko'ra qimmatroq narxda sotib olgan xaridor yoki tovari arzonroq narxda sotib qo'ygan sotuvchining birortasi ham bozordan o'pkalamaydi. Bozor - tovarning narxini belgilovchi eng xolis hakam. Bozorda tovarning narxi qanday shakllanishi bilan keyingi darslarda tanishamiz.

Bozorning uchinchi vazifasi - iqtisodni, ishlab chiqarishni tartibga solib turishdan iborat. Nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish kerak? Kim uchun ishlab chiqarish kerak? Bu savollarga faqatgina bozor javob beradi. Bozor tovar narxining ko'tarilishi yoki pasayishi orqali ishlab chiqaruvchilarga qaysi tavarni qancha ishlab chiqarish kerakligi yoki kerak emasligi haqida axborot berib turadi. Tovar bozorgir bo'lsa, uni ishlab chiqarish ko'paytiriladi, tovar mo'ljadagi narxda o'tmasa, uni ishlab chiqarish to'xtatiladi yoki sarf-xarajatlarni kamaytirib, arzonlashtirish choralarini ko'rildi.

Bozorning to'rtinchi vazifasi — turli davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik o'rnatishdan iborat. O'zaro manfaatli hamkorlikdan hamma foyda ko'radi. Shunday ekan bozor chegara blmaydi. Hozirda bozorlarimizdagi dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan keltirilgan tovarlar buning yorqin isbotidir. Jlii/oining davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy Ihiinkiiilik aloqalarini o'rnatish vazifasi dunyoda tinch-totuv vikiiliisIi kafolati sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu navbatida davlatlarning u yoki bu tovari islab chiqarish-j>< iMisoslashuviga olib keladi. Davlatlar o'rtasida ixlisoslashuv va lyrboshlash qanchalik keng tarqalsa, bu ularning mustaqilligini knitintiradi va shu tariqa o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Heckistonda ob-havo noqulayliklari tufayli paxta hosilining,

liyada kofe hosilining kam boiishi butun dunyodagi i'li mihsulotlar iste'molchilariga tezda ta'sir ko'rsalishi mumkin. \hil> m.imlakatlarida neft qazib olishning kamayishi butun dunyoda in narxlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Qadriyatlar

1. "Otag — bozor, onang — bozor", degan iborani qanday tushunasiz?

2. Dehqon bo-zorida qulog'ingizga: "Bergan pulingizga rozi bo'ling", "Siz ham rozi bo'ling", degan so'zlar cha-lingen bo'lsa kerak. Bu so'lar zamirida nima yotibdi?

3. Buyuk shoiri-miz AbdullaOri povning: "Bozorga o'x-s h a y di a s I i b u dunyo", degan she'-riy satrini sharhlang.

Shogird uzoq mamlakatlarga safar qiladigan I" lilnil yu, piri — ustozidan so'rabdi: "Sayohat ■ i" r 1 el-yurtmi tanimoq uchun nimalargadiqqatbor qilay, ustoz?". "Dunyoning qaysi in inil.ikaliga borsang, o'sha el-yurtning uch jlhllllga c'tiborber. Dastavval, mozorini, keyin iii'iinii, so'ng el-ulusining muomala-muno-iiIhiIiii kuzat!"— debdi ustozi. Donishmand u inznima sababdan shogirdiga bunday masla-ii u bergen?

Buni yoi , tuting Bozor sotuvchi va xaridorni o'zaro bog'laydi, ularga tovarlarini o'zaro ayirboshlash, almashtirish imkoniyatini yaratadi.

Tovarning narxi bozorda aniqlanadi. Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Buyuk I pak yo'li

Buyuk ipak yo'li haqida turli manbalardan ma'lumot to'plab. bu yo'l qaysi shaharlardan o'tganini xaritadan aniqlang. Qadim-da xalqaro savdo-sotiq ishlari qanday olib borilgani haqida referat tayyorlang.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Bozorning mayjud bo'lishi uchun har doim ham maxsus ajratilgan joyning bo'lishi shartmi?

2. Bozor vazifalarini sizga tanish bozor misolida tushuntirib berinr Sizningcha bozorning qaysi vazifasi qolganlariga qaraganda muhimroq hisoblanadi?

3. Qadimda mamlakatimiz hududidan o'tgan Buyuk Ipak yo'li v;i karvonsaroylar haqida nimalar bilasiz? Javobingizni asos lang.

4. Oldi-sotdi jarayoni natijasida xaridor ko'proq naf ko'rardinii yoki sotuvchi?

5. Mamlakatlar nima sababdan bir-birlari bilan o'zaro savdo sotiq qilishadi?

6. Savdo ko'rgazmalarini o'kazishdan ko'zlangan maqsad turnaj Savdo ko'rgazmasini ham bozor, deb atasak bo'ladimi?

7. "Supermarket" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang.

8. Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turadi, degan fikrni izohlanr

9. Agar turmushimizdan bozor tushunchasi chiqarib tashlansn, nima sodirbo'ladi?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

MAVZU :BOZOR VA NARXLAR

Ta'limi maqsadi: O'quvchilarni bozor va narxlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuqorida keltirilgan DVD-pleyer, qo'l telefoni, IBM-386 rusumidagi kompyuter, velosiped, darsiik va qora quiti ichida sizga noma'lum bo'lgan tovarga sifatida narx belgilang.

2 Yuqorida keltirilgan tovarlarga xaridor sifatida narx belgilang.

3. Narx belgilayotgan paytingizda nimalarga e'tibor berdingiz?

4. Qora quiti ichidagi tovarga narx belgilash uchun sizga qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?

1 Do'konda biror tovarning ayni paytdagi narxini surushtiring va bu tovar nima sababdan bunday narxda sotilayotganini izohlashga urinib ko'ring.

Tayanch atamalar Narx - bir birlik tovar yoki xizmat uchun xaridor to'-lashga, sotuvchi esa uni sotishga rozi bo'lgan pul miqdori.

BOZOR NARXLARI Bozorlar xaridorlar va sotuvchilarga tovarlar va xizmatlarni lyrboshlash imkoniyatini yaratib bemychi tizimdir. Qachonki, qodir xaridorlar va sotuvchilar tovarlar va xizmatlarni lyl'boshlash haqida muloqot qilishlari uchun sharoit borekan, bozor mayjud. Narx xaridorlar ma'lum bir tovar yoki i.inainiig birbirligi uchun to'laydigan pul miqdoridir. Masalan. I'i kilogramm sariyog' uchun 3000 so'm, bir qadoq choy uchun 600 so'm, bir donavelosi ped uchun 35000 so'm vahokazo. Narxlar har doim bir-biriga solishtiriladi. Turli mahsulotlarning narxlarini o'zaro solishtirish orqali iste'molchilar ularni xarid qilishadi. Turli resurslarning narxlarini solishtirish orqali firmalar ma'lum tovarlar va xizmatlarni sotib oladilar. Turli bozorlardagi narxlarln o'zaro solishtirib, sotuvchilar o'z tovarlarini eng manfaatli ravishda sotishlari mumkinligini aniqlaydilar. Shu tariqa, narxlar o'zaro taqqoslanishi orqali iqtisodiyotning: Qanday tovar va xizmatln ishlab chiqarish kerak? Qanday qilib ishlab chiqarish kerak? Kim uchun ishlab chiqarish kerak? kabi uch asosiy savollariga javob beriladi.

Nima ishlab chiqarish kerak? Eng ko'p foyda keltiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kerak.

Qanday qilib ishlab chiqarish kerak? Iloji boricha kamroq xarajat qilib ishlab chiqarish kerak.

Kim uchun ishlab chiqarish kerak? Tovarning bozor narxini to'lashni istaydigan va bunga qodir har qanday kishi uchun ishlab chiqarish kerak. O'zaro bir-biriga bog'liq bozor narxlari markaziy rejalashtirishsiz yoki xususiy ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarning qaror-larini bevosita nazorat qilmay turib qay tarzda sanoqsiz tovarlar va xizmatlarni istalgan paytda, istalgan miqdorda ishlab chiqarish va yetkazib berishini anglash juda muhimdir. Bu hodisa narxlar bozor tizimida uch asosiy vazifani bajarishi bois sodir bo'ladi: 1) axborol berish vazifasi; 2) rag'batlantrish vazifasi; 3) taqsimlash vazifasi,

NARXLARNING AXBOROT BERISH VAZIFASI Narxlar va ular orasidagi nisbatlar bozor tizimidagi iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va resurs egalarini niman, qancha miqdorda sotib olish kerak yoki kerak emasligi haqida qaror qabul qilish uchun zarur asosiy ma'lumot bilan ta'minlaydi. Narxlarning axborot berish funksiyasi ahamiyatini to'la tushunib olish uchun quyidagi holatni tasavvur qiling: Supermarketda xarid qilyapsi/ Peshtaxtalardagi buyumlarning birortasining ham narxi ko'rsa-tilmagan. Yoki ikkita yumushdan birini ularga to'lanadigan ish haqini bilmay turib tanlashni faraz qiling. Yoki bo'yoqchilar isn'tuchun qancha so'rashi, bo'yoq, mo'yqalam va boshqa mate riallarning narxlari to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega bo'lrmay turib, bo'yoqchi yollash yoki bu ishni o'zingiz bajara olishingi/ to'g'risida qaror qabul qilishga intilayotganingizni tasawur qiling, Bu holatlarning har birida narx haqida ma'lumotga ega bo'lma turib, qaror qabul qilish juda qiyin bo'ladi.

NARXLARNING RAG'BATLANTIRISH VAZIFASI Narxlarning o'zgarishi bozor iqtisodiyotida resurslarni ko'chi-ii.h yoki qayta taqsimlash uchun rag'batlar hosil qiladi. Soya U Klmligining narxi makkajo'xori narxiga nisbatan ortishi fermer-i u in ko'proq soya o'simligi va kamroq makkajo'xori ekishga da'vat . Huquqshunoslar maoshi hisobchilarnikiga nisbatan kamli-hi kamroq odamlarning huquqni va ko'proq odamlarning buxilciriyanı o'rganishiga sabab bo'ladi. Erkin bozorda foydaning resurslarni jalgiladi va ayni paytda zararning ortishi bunga zama-qarshi natijaga sabab bo'ladi. Foyda iqtisodiy hayotning Jul chiroqlari, zarar esa qizil chiroqlaridir. Yaxshi ishlaydigan harakati nazorati tizimi ham yashil, ham qizil rangning lishini talab qilganidek, yaxshi ishlaydigan bozor tizimi uchun iimi foyda, ham zararning mayjud bo'lishi zarurdir.

NARXLARNING TAQSIMLASH VAZIFASI Boshqa shart-sharoitlar o'zgarmay, biror tovarning narxi, odamlar uni kamroq xarid qilishga harakat qiladilar va ha, narx qanchalik past bo'lsa, odamlarda shu tovari xarid qilish istagi ortadi. Narxlar vositasida bozorda tanqis resurslar uchun pul to'lash istagi va qobiliyati eng yuqori bo'lgan r.ii niolchilar orasida taqsimlanadi. Shahar markazidagi yer m.i\dimining egasi uni ofis binosi uchun ijara berganda, garaj ombor uchun bergandagiga nisbatan ko'proq ijara haqi olish mil oniyati bo'lsa, yer maydonidan ofis binosi uchun foydalilanilargar 50000 kishi 5000 kishilik zalda o'tkazilishi ko'zlangan konsertni tomosha qilishni istasa, chiptaning narxi faqat 5000 kishi to'lay olgunga qadar oshishi mumkin, qolgan 45000 kishi hipta narxi qimmat bo'lgani uchun konsert tomosha qila olmaydi.

BILMINGIZNI SINAB KO'RING! Bozorda biror narsa sotib olayotganingizdagagi xatti-haralargizni ayтиб bering. Nima sababdan biringchi duch kelgan O'tuvchidan xarid qilmaysiz? Hi izor iqtisodiyoti sharoitida narx qanday vazifalarni bajaradi? Bozorda tovar narxi: a) sotuvchilarga; b) xaridorlarga qanday ma'lumot beradi? Narxning axborot berish, rag'batlantrish va taqsimlash vazilai aniq misollarda tushuntiring. lehlab chiqaruvchilar uchun foyda va zarar nimadan xabar beradi?

Qadriyatlar Hech e'tibor berganmisiz, har gal kimdir qandaydir narsa sotib olsa, beixtiyor lining narxini surishtirishga tushamiz.

*Buyumning narxi haqidagi bu ma'lumot biz uchun nimaga kerak bo'ladi?
Buni yodda tutinq! • Narx tovar sotib olishda to'lanadigan pul miqdoridir. ⚡ Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx axborot berish, rag'-batlantirish va taqsimlash vazifalarini bajaradi va iqtisodiyotning uchta asosiy savollariga javob beradi.
Bozor tizimida narx iste'molchi va ishlab chiqaruvchi-larga tovari ishlab chiqarish va taqsimlash bo'yicha qimmatli ma'lumot*

*Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.
Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish*

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAQT:45

MAVZU : BOZOR QATNASHCHILARI.

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni bozor va narxlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlanuvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixzozi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR Dars mavzusiga oid keltirilgan 5 xil bozor turining ta'rifini yaxshilab o'rganib chiqing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Vuqorida keltirilgan tovar va xizmatlar qaysi bozorlarda sotiiadi yoki sotib olinadi?

2. Bozorlar qaysi xususiyatlari qarab bunday turlarga ajratil-gan?

3. Har bir bozorning o'ziga xos qanday xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin?

4. Bu bozorlaming birortasi faoliyat ko'rsatmay qolsa, qanday oqibatlarga olib kelishini tasvirlashga urinib ko'ring.

ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI Alioli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar iste'mol lovarlar bozorida sotiladi. Biz yaxshi bilgan dehqon bozori, mol u izori, mashina bozori, uy-joy bozori, kiyim-kechak va buyumlar bozori, do'konlar, supermarketlar, oshxonha, nowoyxona, transitu, aloqa, elektr, suv, gaz, issiqlik ta'minoti korxonalari, sartaroshxonha, madaniyat, sog'lioni saqlash, ta'lim maskanlari - istemol tovarlar bozorini tashkil qiladi.

ISHLAB CHIQARISH VOSITALARI BOZORI Korxonalarda tovar ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladi asbob-uskunalar, bino-inshootlar, xomashyo va materiallar Ishlab chiqarish vositalari bozorida sotiladi. Ishlab chiqarish vositalari oldi-sotdisi to'g'ridan-to'g'ri bevosita ishlab chiqaruvchi va iste'molchi orasida, yoki tovar birjalari va savdo firmalari xizmarlari orgali amalgalashiladi. Tovar birjalari tovarlarni katta- katta hajmda, ulgurji (ko'tarasiga) sotib olish va sotishni uyushtiradigan vositachi tashkilotlardir.

MEHNAT BOZORI Isliche kuchi, mehnat ham maxsus tovar bo'lgani uchun unuu ham o'z bozori bor. Mehnat bozorida ishchi kuchi sotiladi. Bunday bozorda aholini ishga joylashtirish bilan shug'ullanivchi mehnat birjalari barcha korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsalachi. Mehnat birjasni yollanma ishchi va xizmatchi zarur bo'lgan korxona va ish qidirib yurgan kishilar o'rtasida vositachilik faoliyatini olib boradi.

MOLIYA BOZORI Pulni maxsus, hammabop tovar, deb aytgan edik. Demak, Unlng ham o'z bozori bo'lishi kerak. Bu bozorni moliya bozori deb iishadi. Moliya bozorida pullar qarzga beriladi yoki qarzga tilinadi. Bunday xizmatlarni banklarko'rsatadi. Moliya bozorida nddiy pullardan tashqari "qimmatbaho qog'ozlar" - aksiya, nbligatsiya, veksel, deb ataluvchi maxsus pullar sotiladi va sotib ollnadi. Qimmatbaho qog'ozlar savdosini tashkil qilish bilan fond birjalari shug'ullanadi. Shuningdek, moliya bozorida xorijiy davlat pullari - valutalar ham sotiladi va sotib olinadi. Bu ishni banklarning valuta almashtirish shoxobchalari amalgalashiladi.

INTELLEKTUAL TOVARLAR BOZORI intellektual tovarlar bozorida - aqliy mehnat mahsuli bo'lgan lovarlar va xizmatlar sotiladi. Bunday tovarlarga ilmiy g'oyalar va san'at asarlari, turli xil ma'lumotlar, texnik loyiha va kashfiyotlar, kompyuter dasturlari, kino, konsert tomoshalari va hokazo aqliy mehnat natijasi bo'lgan tovar va xizmatlar kiradi.

Shu bilan birga, alohida olingan tovarlar bozorlari ham bo'ladi. Masalan, neft bozori, paxta bozori, g'alla bozori, rangli metallar bozori va boshqa tovarlar bozorlari. Bozorlar hududiy qamrov darajasiga qarab mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro bozorlarga bo'linadi.

Bozorlar odatda ikkita katta sinfga ajratib o'rganiladi. Ular tovar va xizmatlar bozori va ishlab chiqarish omillari bozoridir. Mustahkamlash uchun savollar!

1. Ishlab chiqarish vositalari bozorining iste'mol tovarlari bozoridan farqi nima?

2. Intellektual tovarlar bozorida nimalar sotiladi?

3. Mehnat bozoriga misollar keltiring.

4. Moliya bozorida qanday savdo amalgalashiladi?

5. Firmalarga qaysi bozordan foiz ko'rinishidagi daromad keladi?

6. Mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro bozorlarga misollar keltiring.

7. Qanday birjalarni bilasiz? Ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlang.

8. Quyidagi tovarlar qaysi bozorda sotiladi?

Non, ichimlik suvi, veksel, traktor, ko'yak, kompyuter dasturi, konsert tomoshasi, sartarosh xizmati, malakali injener xizmati, avtomobil, turar joy, oshxona, oziq-ovqat, meva, asbob-uskuna, xomashyo, omborxona, aksiya, AQSH dollari.

9. Quyida tasvirlangan pullar haqida nima bilasiz?

Tayanch atamalar

Tovar birjasni - tovarlarni katta-katta hajmda, ulgurji (ko'tarasiga) sotib olish va sotishni uyushtiradigan vositachi tashkilot.

Qimmatbaho qog'oz - ma'lum miqdordagi mablag'-ga yoki mulkkaega-likni, yoki ularga nisbatan munosabatni tasdiqlovchi maxsus

pul ko'rinishidagi hujjat.

Fond birjalari - qimmatbaho qog'oz-lar oldi-sotdisini tashkil qilish bilan shug'ullanuvchi vositachi tashkilot.

Mehnat birjas - korxonalar va ish qidirib yurgan kishilaro'rtasida vositachilik faoliyatini olib boruvchi tashkilot.

Moliya bozori - pul va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriladigan bozor.

Mehnat bozori - ishchi kuchi oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriladigan bozor.

Tintelkual tovarlar bozori - aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar oldi-sotdi jarayoni amalga oshiriladigan bozor.

Buni yodda kitin! Bozorlar ularda sotiladigan tovarlarga ko'ra iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari, moliya, mehnat, intellektual tovarlar bozori kabi turlarga bo'lindi.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

MAVZU : IQTISODIY QARORLAR QABUL QILISH.

Ta'limi maqsadi: O'quvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

Qarorlar qabul qilish

"Bo'ston" fermer xo'jaligining rahbari Kamol Abdullayev o'zi yashab turgan qishloqda sutni qayta ishslash sexini qurishga qaror qildi.

Vazirlar Mahkamasining majlisida yangi o'quv yilida mamlakatimizda 13 ta akademik litsey va 90 ta kasb-hunar kolleji qurib, ishga topshirish haqida kelishib olindi.

Yuqorida biri xususly korxona, Ikklnchisi davlat miqyosidagi qaror bilan tanishdilngiz. Keling bu qarorlarning paydo bo'llsh sabablarln o'zimzeha tahlil qilishga urinib ko'raylik, Albatta. bar bir qarorning qabul qllinlihidan oldin iqtisodiy vaziyat, ruyajud resurslardan foydalanish imkoniyatlari obdan, sinchiklab o'rganib chiqilgan. Iqtisodehilar tili bilan aytadigan bo'lsak:

- Nima ishlab chiqarish kerak? - Qanday ishlab chiqarish kerak?

- Kim uehum ishlab chiqarish kerak? degan savollarga javob izlangan. Ya'ni qaror (imkoniyatlardan ichidan birini tanlash) tejamkorlik bilan ratsional qabul qilingan. Ikkinci tomonidan esa bu qarorni amalga oshirgandan so'ng olinadigan natija haqida o'ylab ko'rigan. Bu natija albatta o'zining eng "katta", maksimal qimmati nafga ega bo'lishi bilan ajralib turishi lozim. Aks holda bunday qaror qabul qilinmas edi. Haqiqatan, agar Abdullayev uchun sutni qayln ishslash sexidan ko'ra konserva zavodini qurish ko'proq qimmatli va nafli (samarali) bo'lganida edi u o'z qarorini o'zgartirgan bo'lar edi.

Xuddi shuningdek, davlat miqyosidagi qarorlar ham o'zining eng naflvi samaraliligi bilan ajralib turadi. Demak, har qanday iqtisodiy qaror o'zining qaysidir ma'nodn maksimallik xususiyati bilan ajralib turishi lozim ekan.

Qarorning qadr - qimmati va naif.

Har bir qaroming qadr-qimmati va nafi alohida olingan shaxsga va jamiyatga keltiradigan qiymati bilan o'chanadi.

Abdullayevning sutni qayta ishslash sexini qurish haqidagi qarorining xususiy qadr-qimmati, sexni ishlatish natijasida awalo uning o'ziga keladigan naf (foyda) va o'z ishidan qoniqish hissi kabi naf bilan sexm qurish uchun sarflanadigan xarajatlar va qo'ldan boy berilgan imkoniyatlarni o'zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Ikkinci tomonidan bu qarorning ijtimoiy qadr-qimmati ham bo'lib, u qishloqda qo'shimcha ishchi o'rinnarini yaratish, odamlaming sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish kabi jamiyatga keltiriladigan naf (foyda) bilan jamiyat tomonidan qilinadigan I chiqimlarva boy berilgan boshqa muqobil imkoniyatlarni o'zaro solishtirish natijasida aniqlanadi. Shuday qilib, har bir kimsa qaror qabul qilayotganida ham shaxsiy, ham ijtimoiy nuqtai nazardan qo'lg'a kiritadigan yutuqlari bilan qo'ldan boy beradigan imkoniyatlarini albatta o'zaro taqqoslashi lozim ekan.

Iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoni

Qaromi amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan xususiy va ijtimoiy chiqimlar hamda qarorning muqobil qiymati.

Qabul qilingan qaromi amalga oshirish natijasida qo'lg'a kiritiladigan xususiy va ijtimoiy yutuqlar.

Mustahkamlash uchun savollar!

U Iqtisodiy to'g'ri qaror qabul qilishning qanday bosqichlari va mezonlarini bilasiz? Biror misol asosida tushuntirib bering.

Ratsional ish ko'radigan kishi, deganda qanday odamni tushunasiz?

Kechagi kuningizni ertalabdan kechgacha qanday o'tkazganligizni soatlar bo'yicha tasvirlang. Siz kun davomidagi o'z faoliyatizingizni tejamli - ratsional tashkil qildingizmi? Siz o'tgan kundan maksimal naf oldingizmi? Uni unumli va yoqimli o'tkazdingizmi?

Shu kunlardagi faoliyatizingizdan o'zingizga, oilangizga va jamiyatga qanday naf va chiqim bor, deb o'ylaysiz?

5 Xususiy va ijtimoiy qadr-qimmati bir-biriga teskari bo'lgan qarorga misol keltiring va unga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring.

Bu haqda o'ylab ko'ring!

Tamaki chekishdan chekuvchiga qanday naf bor, deb o'ylaysiz? Atrofdagilargachi?

Chekish chekuvchi uchun "qancha" turadi? Atrofdagi chekmaydaganlar uchunchi? Umuman, jamiyat uchunchi? Nima sababdan chekishni tashlab unga sarflanadigan pulga madaniy hordiq chiqarish yoki biror-bir foydali narsa sotib olish qiyin, deb o'ylaysiz?

Davlat tomonidan chekish umuman taqiqlab qo'yilsa bo'lmaydimi?

Har bir kishining farovon yashashi ko'p jihatdan oqilonan iqtiso- yodda diy qaror qabul qilishiga bog'liq.

Har bir kishi qaror qabul qilayotganida qo'lga kiritadigan yutuqlari bilan qo'ldan boy beradigan imkoniyatlarini albatta o'zaro taqqoslashi lozim.

Qaror qabul qilish (yechim tnnlash) jarayonining bosqichlari:

Muammoni aniqlash. Barcha muqobil yechimlarini sanab chiqish. Baholash mezonlarini aniqlab olish. Har bir yechimni mezonlarga ko'ra baholab chiqish. Baholash natijasiga ko'ra eng yaxshi yechimni tanlash.

Qadriyatlar

"Yetti o'lchab - bir kes", "Ishni o'zini emas - ko'zini bil", degan maqollarni qanday tushunasiz.

Topshlriq

Sizning maktabda bir yil o'qishingiz: ota-onangizga; davlatga taxminan qanchaga tushishini hisoblab chiqing.

Maktabda o'qishingizdan: sliaxsan o'zingizga; jamiyatga qanday nal borligini aniqlang va yuqorida iinqlangan chiqimlar bllan taqqoslang. Siz bu chiqimlarni oqlaytipsizmi?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAQT:45

MAVZU : ISTEMOLCHILARNING HUQUQLARI.

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni istemolchilarning huquqlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixozisi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

Reklama - ommaviy axborot vositalarida iste'molchilarga tovar haqida ma'lumot berish bilan ularning tovarga bo'lgan talabini oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiri.

Tovarning shtrix koili - tovar haqidagi ma'lumotlarni tovar yorlig'iда ifodalovchi chiziqchalai ilastasi va raqamlar ketligidan iborat maxsus belgi.

ISTE'MOLCHILAR NIMALARNI BIUISHI KERAK?

Harbirimiz bozorda iste'molchi sifatida qatnashamiz. Xo'sh, iste'molchi sifatida, biror tovarni xarid qilish chog'ida, nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Iste'molchi sifatida qanday haqliuqqlarimiz bor? Bu va shunga o'xshash savollarga 0'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunidan javob topishimiz mumkin. Quyida shu huquqlar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Iste'molchilar tovar va uni ishlab chiqaruvchi korxona to'g'risida quyidagi ishonarli va to'la axborotni olish huquqiga cga: tovarning tegishli sifat ko'rsatkichlariga muvofiqligini lasdiqlovchi hujjat;

- tovarning iste'mol va o'ziga xos xususiyatlarining ro'yxati; - tovarning narxi; tovar tayyorlangan sana; tovardan foydalanish qoidalari va shartlari; - tovari xizmat (yoki saqlash) muddati; - ishlab chiqaruvchining tovardan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatları; tovari saqlash usullari va qoidalari.

Tovar sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi va inson salomatligiga hamda atrof-muhitga xavfsiz bo'lishi lozim. Ishlab chiqaruvchi tovarning butun xizmat muddati mobaynida, agar u belgilanmagan bo'lsa, unda u sotilgan kundan boshlab 10 yil mobaynida tovarning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi lozim. Agar iste'molchi nuqsonli tovar sotib olgan bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilishga haqlı: nuqsonli tovari tegishli sifatga ega bo'lgan xuddi shunday lovarga almashtirish;

- boshqa shunga o'xshash tovarga, xarid narxini tegishli hisob-kitob qilish yoki bilan almashtirish; ishlab chiqaruvchidan tovar kamchiliklarini bepul tuzatib berish yoki tuzatish xarajatlarini undirish; - nuqsonli tovar narxini tegishli miqdorga kamaytirish;

- yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash sharti bilan, nuqsonli tovari ishlab chiqaruvchiga qaytarish. Iste'molchi bu huquqlardan tovar sotib olingen kundan boshlab, tovarning kamchiliklari aniqlangan quyidagi muddatgacha foydalanishi mumkin:

- kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati ichida; kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar uchun — 6 oy, ko'chmas mulk uchun — 2 yil (agar shartnomada boshqa uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa).

Iste'molchining talablari tovari aynan shu ishlab chi qaruvchidan (sotuvchidan) sotib olganligini tasdiqlovchi tegislili hujjat (masalan, kassa cheki, tovarning hujjati) taqdim etilgandagina ko'rib chiqiladi.

Qonunda ko'rsatilgan bu huquqlar buzilganda va tomonlni murosaga kelolmaganda sudga yoki davlatning boshqa vakolalli organlariga murojaat qilish mumkin.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadkla joylarda jamoat birlashmalarini tashkil qilish mumkin.

REKLAMA

Reklama, ommaviy axborot vositalarida iste'molchilarga tovni haqida ma'lumot berish bilan ularning tovarga bo'lgan talabin! oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiridir. Reklama so'zi lotinchada jar solish, chaqiriq, degan ma'noni anglatadi.

Reklamaning afzalliklari:

reklama iste'molchilar manfaatiga xizmat qiladi, chunki u iste'molchilarini bozordagi narxlar va yangiliklardan xabardoq qiladi; reklama ko'pincha narxlar pasayishiga olib keladi;

reklama raqobatni rag'batlantiradi va bundan iste'molchilar va butun jamiyat yutadi;

reklamadan tushadigan daromad ommaviy axborol vositalari xarajatlarining katta qismini qoplaydi;

reklama iste'molchilar talabining ko'payishi va buning natijasida iqtisodiyotning 0'sishiga olib keladi.

Reklamaning kamchiliklari: reklama ba'zida iste'molchilarga noto'g'ri axborot berib, chalkashtiradi;

reklama katta nioliyaviy xarajatlarni talab qiladi, bu csii tovarlar narxini oshiradi;

iste'molchilarda uncha zarurbo'lмаган tovarlarga pul sarflash maylini keltirib chiqaradi;

ommaviy axborot vositalari reklama beruvchilarga qaram bo'lib qoladi, bu esa ularning erkinligi va mustaqilligini cheklaydi, **TOVARNING SHTRIX KODI** Tovarning shtrix kochi o'ziga xos ma'lumot manbai bo'lib, undan tovarning qaysi davlatda tayyorlanganligini, qaysi korxom ishlab chiqqarganligini va tovar haqidagi boshqa ma'lumotlarni aniqlab olish mumkin. 13 ta raqamdan iborat 87103352304.11 shtrix kodning birinchi ikki raqami 87 - tovarning Niderlandiyada tayyorlanganligini, keyingi 5 ta raqam 10335 - lovar ishlab chiqarilgan fermaning bu mamlakatda ro'yxatga nilingan nomerini anglatadi. Keyingi 5 ta raqam 23043 - lovarning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Oxirgi laqam 1 esa tovar kodining nazorat raqamidan iborat. lovarning kodi yordamida uning qalbaki yoki haqiqiy ekanligini quyidagi sodda arifmetik hisob-kitoblar yordamida bilib olish mumkin. Buni yuqorida tovar kodi misolida ko'rsatamiz.

1) chapdan o'ngga tomon juft o'rniда turgan raqamlar qo'shib chiqiladi: $7+0 + 3 + 2 + 0 + 3 = 15$;

2) chiqqan natija 3 ga ko'paytiriladi: $15 \times 3 = 45$;

1) toq o'rinda turgan oxirgi nazorat raqamidan tashqari raqamlar qo'shib chiqiladi: $8 + 1 + 3 + 5 + 3 + 4 = 24$;

2- natija bilan 3-natija qo'shiladi: $45 + 24 = 69$; chiqqan sonning oxirgi raqami 10 dan ayrıldi: $10 - 9 = 1$; oxirgi natija tovar kodining nazorat raqami bilan bir xil bo'lsa, tovar - haqiqiy, aks holda - qalbaki bo'ladi.

Siz iste'molchi sifatida do'kondan biror narsa sotib olayotganingizda tovar haqida qanday ma'lumotlar so'rab-surishtirishga haqqingiz bor?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A. Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

MAVZU : III –BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.

Ta'limi maqsadi: O'quvchilarni istemolchilarning huquqlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

A. SAVOLLAR

1.Iste'molchiga xos mustaqillik, ratsionallik va maksimallik xislatlari namoyon bo'ladigan vaziyatlarga bittadan misollar keltiring.

2.Iste'molchining qanday daromad manbalari boiishi mumkin? 3. Hamma narsaning egasi -mulkdori bo'lishning afzalligi va kamchiliklari, ijobjiy va salbiy tomonlarini sanang. 4.Mamlakatimizda temir yoi transports xususiylashtirilganda qanday ijobjiy va salbiy o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin? 5.Xususiylashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nimadan iborat?

6.Davlat, egasi alohida olingan shaxs yoki jamoa bo'lgan xususiy mulklarga uchtadan misol keltiring. 7.Insonning iqtisodiy qadr-qimmati nima bilan o'lchanadi? 8. Insonning ma'naviy boyligi, deganda nimani tushunasiz? 9. Boylik nima? Qanday odamni boy odam deyishadi? 10.Aholi daromadlari tengsizligining afzallik va kamchilik tomonlarini sanang. 11.Oila budgeti nima?

12. Qanday xarajat turlarini bilasiz? 13. Engel qonuni nima haqida? 14.Odamlar nima sababdan pul mablag'larinijamg'aradilar?

15. Pul jamg'arishning qanday yo'llarini bilasiz va ular ichidan qaysi biri siz uchun ma'qul va qulay? Nega?

16. Siz iste'molchi sifatida do'kondan biror narsa sotib olayotganingizda tovar haqida qanday ma'lumotlarni so'rab-surishtirishga haqqingiz bor? 17. Reklamadan kim ko'proq naf ko'radi? Iste'molchilarmi? Ishlab chiqaruvchilarmi? (Jmmaviy axborot vositalarimi?

B TOPSHIRIQLAR Qnyida avval atamalarning nomlari so'ng ulaming talqinlari berilgan. Har bir atamaga is talqinni toping.

ATAMALAR: 1.Xususiylashtirish. 2.Inson kapitali. 3.Modtliy kapital. 4.Tadbirkorlik foydasi. 5. Oila budgeti. 6. Real daromad.

7. Majburiy xarajatlar. 8. Nominal daromad. 9. Jamg'arma. 10 Omonat.

TALQINLAR: a)tadbirkorlik laoliyati natijasida qo'lga kiritiladigan daromad;

b)oilaning ma'lum davrdagi daromad manbalari va xarajatlari keltirilgan moliyaviy rejasi; d)ma'lum davr davomida alohida olingan shaxs yoki oila tomonidan qo'lga kiritilgan daromad miqdori;

e)kelajakdag'i ehtiyojni qondirish uchun jamg'ariladigan pul; f) mablag'ni jamg'arish uchun ma'lum ustama haq - foiz evaziga bankka qo'yish; g) davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish jarayoni; h) nominal daromadning muayyan yildagi narxlarga nisbatan qiymati; i) jamg'arilgan daromadning moddiy mulkka aylangan qismi va pul mablag'lari; j) kundalik turmushda ularsiz yashab bo'lmaydigan birlamchi xarajatlar; k) kishining aql-idroki, bilimi, zakovati, kuch-quwati, ish tajribasi, malakasi, kasbiy mahorati, salohiyati, sog'lig'i va ma'naviy dunyosi.

TESTLAR Berilgan savolga mohiyat jihatdan eng to'g'ri va to'liq javobni belgilang.

1.Noto'g'risini toping. **Iste'molchilarning daromad manbalariga nimalar kiradi?** A Stipendiya, pensiya, nafaqa. B. Sug'urta, jamg'arma. D.Tadbirkorlik foydasi. E.Ish haqi, dividend. F.Renta, foiz.

2.Quyidagi holatlarning qaysi birida mulk shakli o'zgaryapti? A.Chiu o'g'liga hovlisini meros qilib goldirdi. B. Davlat tashkiloti bolalar uyiga kompyuter sovg'a qildi. D.Fermer sigirini bozorga olib chiqib sotdi. E. Burhonovlar oilasi kvartira sotib oldi. F. Olg'irovning dang'lllama hovlisi musodara qilinib, o'quvchilar saroyiga aylantirildi.

3.Mulkka to'la egalik qilish huquqi, deganda nimani tushunasiz? A.Uni sovza qilish; B. Uni sotish yoki ayriboshlash. D. Undan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish. E. Unga ealik qilish. F. Yqoridagilarning barchasi.

4.Qaysi guruhdagi daromadlar faqat moddiy boylikdan foydalanish evaziga ortiriladi? A. Renta, foiz, maosh. B.Nafaqa, maosh, stipendiya. E.Foyda, pensiya, dividend. F. Renta, dividend, foiz.

5.Oila budgetida: A.Kamomad bo'lmasligi kerak. B.Faqat oilaviy chiqimlar keltirilgan bo'ladi. D. Faqat oilaviy daromadlar keltirilgan bo'ladi. E. Oilaning ma'lum davrga rejalash-tirilgan daromad manbalari va xarajatlari keltirilgan boiadi. F. Oilaning o'tgan davrdagi daromadlari va xarajatlari keltirilgan boiadi.

6.**To'g'ri jumlani toping:** A. Mamlakatimizdagi daryolar, ko'llar, suv zaxiralari mulk hisoblanmaydi. B.Osmon, yulduzlar, quyosh

mulk hisoblanmaydi. D. Tabiiy boyliklar davlatga tegishli: emas. E. Siz o'qiyotgan məktəb, yo'llar, ko 'chalarlığı daraxtlar, favvoralarıng egasi yo 'q. F. Siz foydalanadigan barcha narsalar sizning mulkingiz hisoblanadi.

7. Mehnat resurslaridan qaysi ko 'rinishdagı daromad kelidi? A. Renta. B. Foiz. D. Ish haqi. E. Foyda. F. Dividend.

8. Quyidagi daromad turlarining qaysilari faqat davlat tomonidan yordam tariqasida beriladi?

A. Mukofot. B. Ishsizlik nafaqasi. D. Dividend. E. Stipendiya. F. Qarilik nafaqasi.

9. Noto'g'ri jumlani toping: A. Daromad ko 'payganda, jamg'arishga moyillik oshadi. B. Jamg'arma faqat moddiy kapitalni ko 'paytirishga sarflanadi. D. Inflatsiya - jamg'arma dushmani. E. Jamg'arish kelajakda iqlisodiy rivojlanish negizi hisoblanadi. F. Boylik moddiy va insoniylar yig'indisidan iborat.

10. Mulkni sug'urta qilishdan maqsad: A. Undan uzoq vaqt foydalanish. B. Qimmat narxda sotish. D. Baxtsiz hodisa tufayi mulkka moddiy zarar yetkazilsa, uning o'rnini qoplash. E. Tekin ta'mirdan chiqarish. F. Eskirganda o'rniga yangisini sotib olish.

11. Iste'molchilar tovar haqida qanday ma'lumotlarni olish huquqiga ega? A. Tovarning sifatini tasdiqllovchi hujjat bilan tanishish. B. Tovardan foydalanish qoidalari haqida. D. Tovardan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatları haqida. E. Tovar tayyorlangan sana va uni saqlash qoidalari haqida. F. Yuqoridagilarning barchasi haqida.

12. Agar iste'molchi nuqsonli tovar sotib olgan bo'lса, u nimani talab qilishga haqli?

A. Nuqsonli tovarni tegishli sifatga ega bo'lgan xuddi shunday tovarga almashtirish.

B. Boshqa shunga o'xshash tovarga, xarid narxini tegishli hisob-kitob qilish yo'li bilan almashtirish.

D. Ishlab chiqaruvchidan tovar kamchiliklarini bepul tuzatib berish yoki tuzatish xarajatlarini undirish.

E. Nuqsonli tovar narxini tegishli miqdorga kamaytirish va vetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash sharti bilan, nuqsonli tovarni ishlab chiqaruvchiga qaytarish. F. Yuqoridagilarning barchasi.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman. **Uyga vazifa :** O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A. Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

MAVZU :TALAB VA TAKIF QONUNLARI.

Ta'limiylar maqsadi: O'quvchilarni talab va takif qonunlari. huquqlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixozisi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni.

Talab miqdorlar - xaridorlarning muayyan vaqt davomida ma'lum narxda sotib olishlari mumkin bo'lgan tovar miqdori. Talab - tovarning narxi va talab miqdori orasidagi munosabat bo'lib, xaridorlarning muayyan vaqt davomida tovarni turli narxlarda qanchadan sotib olish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Talab va talb miqdori

Tovarga bo'lgan talab, xaridorlarning muayyan vaqt davotovarni turli narxlarda qanchadan sotib olish haqidagi xohishi va imkoniyatlarini aniqlaydi. Talab miqdori deb, xarining muayyan vaqt davomida ma'lum narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdoriga aytildi. Biror tovarga bo'lgan nilatdajadval ko'rinishida ifodalanadi. Jadvalga ko'ra grafik chizilsa, talab chizig'i hosil bo'ladi. Buning uchun tekislikda Op o'qni vertikal, Oq o'qini gorizontal qilib chiziladi. Op o'qdagi tavarning narxi va Oq o'qdagi talab miqdoriga ko'ra tekislikda mos nuqtalr topiladi. Bu nuqtalarni birlashtirish natijasida hosil bo'lgan chiziqqa talab chizig'i, deb ataladi. Talab chizig'i odatda D harfi - inglizcha "demand" (talab) so'zining bosh harfi bilan belgilanadi.

Talab qonunlari

Tovarga bo'lgan talab tovarning narxiga bog'liq va bog'liq Imagan omillar asosida o'zgarib turadi. Talabning narxga bog'liq bo'lman omillar ta'sirida o'zgarishini keyingi darsda tahlil qilamiz. Bu darsda tovarga bo'lgan talabning faqat narxga bog'liq xususiyatlari haqida to'xtalamiz. Bu xususiyat talab qonunida o'z ifodasini toppgan:

Boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holatda tovarning narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha ko'p bo'ladi, tovarning narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha kam bo'ladi.

Talab qonuni talab miqdorining narxga teskari bog'langanligini ko'rsatadi. Bu xususiyatni quyidagi uchta omilga ko'ra izohlash mumkin:

1. Daromad omili. Odamlar tovarni arzon narxda qimmat narxdagiga qaraganda ko'proq sotib olishga ishtiyoqmand bo'lishadi, chuki tovar narxining pasayishi iste'molchilarining xarid qobiliyatini oshiradi. Masalan, bozorda go'sht narxi tushsa, odamlar oldin xarid qilayotgan oilaning iste'mol savatidagi narsalarini kamroq pul sarflab sotib olishadi.

Natijada, qanchadir pul ortib Bu pulga qo'shimcha miqdorda yana go'sht yoki boshqa tovarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladir.

2. Almashtirish omili. Xaridorlar narxi qimmat bo'lgan tovarni, uning o'rnini bosadigan boshqa arzon tovarga almashtiradi. Masalan, yoz kunlarida olma narxining pasayishi bois istemolchilar mevaga bo'lgan ehtiyojlarini olma sotib olib iste'mol qilishi bilan qondirishadi. Chunki, bu davrga kelib olma narxi apelsin yoki banan narxiga nisbatan anche arzon bo'lib qoladl Shuning uchun qimmat apelsin va banan o'rnini olma egallayili Toyar narxining o'zgarishi bu ikki omilni keltirib chiqaraill va ularning o'zarlo ta'siri natijasida tovarga bo'lgan talab miqdori shakllanadi.

Alohiba olingan shaxsning biror tovarga bo'lgan talabi uninj bu tovar haqidagi qanday va qanchalik to'liq ma'lumotlarga egn ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Haqiqatan, biror tovarga bo'lgan talabning oshishi uchun

tovarning sifatli qilib chiqarilishining o'zi yetarli emas. Bu holatda tovarning sifatli qilib chiqarilayotganligi haqidagi ma'lumotning iste'molchilargu yetib borishi muhimroq hisoblanadi.

Shuningdek, tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga: a) iste'molchining daromadlari;

b) boshqa tovarlarning xususiyatlari va narxi haqidagi ma'lumotlar ta'sir etadi.,

Tovarning narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha ko'p bo'ladi, tovarning narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha kam bo'ladi.

Tovarga bo'lgan talab yuqoridagi jadval ko'rinishida berilgan. U asosida talab chizig'ini quring. Talab chizig'iga ko'ra, narx 120, 200, 280 so'm bo'lgandagi talab miqdorini aniqlang.

Oilangiz bir hafta davomida qancha go'sht iste'mol qilishini aniqlang. Agar go'sht narxi ikki baravar arzon bo'lganda, go'sht iste'mol qilish qanchani tashkil qilar edi? Ikki baravar qimmat bo'lgandachi? Bu ma'lumotlarga ko'ra oilangizning bir hafta davomidagi go'shtga bo'lgan talab jadvalini tuzing va talab chizig'ini quring.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar!

1. Tovarni biror narxda sotib olishga bo'lgan xohishning, ehtiyojning o'zigina talab bo'la oladimi? Qachon bu xohish talabga aylanadil?
Sotivchi bilan xaridor orasidagi raqobat. Sotivchi bilan xaridorlar orasidagi raqobat yuqoridagilaj farq qiladi. Ular orasidagi raqobat sotuvchi va xaridor manfaatlarining bir-biriga qarama-qarshi ekanligida namoyon boiad.

Xaridorlar o'z tovariga yuqori narx belgilagan sotu bilan undan bu tovari sotib olmasliklari bilan raqobat qilad Kim oshdi savodosi - aukusion. Kim oshdi savdosi - sotuvchi yoki maxsus vositachi firma tomonidan uyushtiriladigan savdo tadbiridir. Kim oshdi savdo nima, qayerda, qachon, qanday boshlang'ich narxda sotil xaridorlarga oldindan e'lon qilinadi. Tovarni sotib olish niyal boigan xaridorlar aukcionga qatnashish badalini to'laganlaridan so'ng, e'lon qilingan kuni belgilangan joyda ular ishtirokida aukcion boshlanadi. Aukcionchi har bir lotni, ya'ni aukcionda qo'yilgan tovar, uning miqdori va boshlang'ich bahosini e'lon qiladi. Shundan so'ng, xaridorlar u arga oldindan berilgan raqamlami ko'tarib, tovari yuqoriroq bahoda sotib olish niyatlarini borligini ovoz chiqarib aytishadi.

Aukcionchi har bir bahoni ovoz chiqarib uch marta aytib sanay boshlaydi. Bu paytda kimdir yana ham yuqoriroq bahoni aytса, sanoq yana boshqatdan boshlanadi va hokazo. Savdo eng yuqori narxda sotib olmoqchi bo'lgan yagona xaridor aniqlanguncha davom etadi. Aytingchi, "kim oshdi" savdosini qanday raqobat turiga kiritish mumkin?

***Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar!** 1.Raqobat iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki raqobat tufayli ko'p firmalar sinadi, hammaning tinchi buziladi, bir maromda ketayotgan faoliyat tarzi o'zgaradi, firmalar bir-biriga dushman bo'lib qoladilar. Umuman aytganda, ko'proq foyda olish maqsadida odamlar nimalarga qo'l urmaydilar. Siz bu fikrga nima deysiz? 2.Nima sababdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatsiz iqtisodiyot rivojlanmaydi?*

3.Quyidagilar o'z sohalaridagi raqiblari Mian qanday yo'llar bilan raqobatlashishadi: a) go'sht yetishtirayotgan fermer xo'jaliklari; b) erkaklar ko'y lagi sotayoigan fabrika; d) turli xil xizmatlar ko'rsatayotgan banklar. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) orasidagi raqobat natijasida iste'molchilar qanday naf ko'rishadi? Misollarda tushuntiring. 4.Raqobat jarayonida sotuvchilar tovar narxini nimaning evaziga tushirishadi?

5.G'irrom raqobat usullariga misollar keltiring. 6.Markazlashgan rejali iqtisodiyotda nima uchun raqobatga ehtiyoj bo'lmaydi?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

***Uyga vazifa :** O'tilganma mavzuni o'qib o'rganib kelish*

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

Mavzu :. Monopoliya va monopollashgan bozorlar.

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni Monopoliya va monopollashgan bozorlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol-javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixozi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

Sof raqobat bozori - muayyan tovar turi juda ko'p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi oson va narxlar erkin bo'lgan bozor. Monopoliya - muayyan tovar turi yakka sotuvchi tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi o'ta qiyin bo'lgan bozor. Oligopoliya - bir nechta yirik korxona va firmalarning

monopoliyasidan iborat bo'lgan bozor

*Raqobat muhiti. Raqobat muhitining vujudga kelishi uchun quyidagi shartlarotlar bo'lishi kerak:
bozorda ishlab chiqaruvchi firmalar (sotuvchilar) va xariorlarning ko'p boishi;
bozorda muayyan bir xil turdag'i tovarning sotilishi; tovarning bozor narxiga hech qaysi firmaning ta'sir o'tkaza ilmasligi;*

boshqa raqobatchi firmalaming bozorga kirishi uchun hech |anaqa to'siqlarning bo'lmasligi.

Bunday xususiyatlarga ega bozor sof raqobat bozori, deb uritiladi.

Odatda, kamdan-kam bozorlar sof raqobat xususiyatlariga ga bo'lishadi. Bozorlar qaysidir darajaga monopollashgan bojadi. Jlar monopollashish darajasiga ko'ra 4 turga bo'linadi va nonopollashish darajasiga qarab quyidagi tartibda joylashgan lo'ladi:

1.Sof raqobat bozori. 2. Monopolistik raqobat bozori. 3. Oligopolya. 4. Sof monopol bozori

Sof monopol bozori . Sof monopol bozorlarida monopolist - sotuvchi narx ustı- an toiiq nazorat o'rnatadi.

Xaridorlaming tanlash imkoniyat- m yo'q boiganligidan ular tovami monopolist belgilagan narx- la sotib olishga majbur bo'ladilar. Monopolist bozorda yakka ukmron bo'lganligi uchun uni tovarning sisati, ishlab chiqarish- a yangi texnologiyalarni qo'llash. uni rivojlantirish kabi ashvishlar qiziqtirmaydi. Xillas, monopol bozorining vujudga elishi nafaqat iste'molchi xaridorlar hamyoniga zarar, balki utun iqtisodiyot taraqqiyotiga to'siq bo'lар ekan.

Oligopolya - bir nechta yirik firmaning monopol bozori.

Tabiiy monopoliya . Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi bir ishlab chiqarish ohalari va tarmoqlari atayin monopollashtirilgan bo'ladi. Bunlay monopol korxonalar va sohalar - tabiiy monopoliyalar, deb taladi. Tabiiy monopoliyalarga, temir yo'l xizmati, yo'nalishlar bo'yicha qatnovchi avtomobilarda yoiovchi tashish xizmati va viatsiya transport! telefon-telegraf aloqasi, elektr energetika armog'i, gaz va suv ta'minoti xizmati kabi qator korxonalarini misol qilib keltirish mumkin. Tabiiy monopoliyalar davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Ular uchun narxlarning ei yuqori darajasi belgilanib, narxlarning oshishi va xizmatlarni kamayib ketishiga davlat tomonidan yo'l qo'yilmaydi. Tuli bozorlarning o'ziga xos xususiyatlari. Turli bozorlarning o'ziga xos xususiyatlari quvidagi jadvak keltirilgan.

Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

O'zbekistonda Monopoliyadan chiqarish. raqobat va tadbirkorlikni qoilab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etilgan. Uning razifasi iqtisodiyotdagi monopoliyaga barham berish, tadbirkorlik va raqobatni qollab-quvvatlashdan iboratdir. Respublikamizda raqobatga shart-sharoit hozirlash va monopoliyalarga qarshi kurashish bozor islohotlarining muhim jihatli lisoblanadi. Raqobatni rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari, hukumat qarorlari chiqarilgan va qonunlar qabul qilingan. Xususan, "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida" gi qonunga ko'ra bozorda sotuvchi firmalaming: ataylab tovarlar taqchilligini hosil qilishi; narxlar ustidan o'z nazoratini o'rnatishi;

boshqa raqobatchi firmalaming bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish kabi faoliyatlar man etilgan.

Bu qonunni buzganlar uchun raqibiga yetkazgan zararini qoplash, jarima to'lash va g'irromlik qilish bilan topilgan foydadan mahrum qilish kabi iqtisodiyjazolarbelgilangan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar! 1.Monopolistik raqobat bozori sof raqobat bozoridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? 2.Sof monopoliyaning oligopolyadan farqi nima? 3.Nima uchun bozorda monopoliya vujudga keladi? 4.Monopolianing qanday iqtisodiy zararlari bor? 5.Monopoliyaga qarshi qonunchilik nega paydo bo'lgan? 6.Tabiiy monopoliyalarga misollar keltiring. 7.Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida monopoliyaga qarshi qonunlarning qanday ahamiyati bor? 8.Iqtisodiyotda monopoliyalaming mavjud bo'lishi har doim ham yomon oqibatlarga olib kelaveradimi? Sizningcha qaysi sohalarda davlat monopoliyasi saqlab qolgingani ma'qul? Nega? Sizningcha qaysi sohalarda monopoliyaning umuman bo'lmagani ma'qul? Nega?

Bu haqda o'ylab ko'rinq! 1. Shaharda faqat ikkita firma muzlat- gich sotadi. Ularning biri narxni ikki baravar oshirdi. Bungajavoban ikkinchi firma qanday chora ko'rishi lozim, deb o'ylaysiz?

2. Quyida sanab o'tilgan sohalarni. 4, qaysi birida monopoliya, oligopolya, monopolistik raqobat va sof raqobat mavjud bo'lishi mumkin: samolyotsozlik; mineral suv ishlab chiqarish; oyoq kiyimi ishlab chiqarish; avtomobilsozlik; qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish; darsliklar chop etish; non pishirib sotish

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

Mavzu :Bozor iqtisodiyoti.

Ta'limiyl maqsadi: O'quvchilarni Bozor iqtisodiyoti haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixozi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida "Nima ishlab chiqarish kerak?", "Qanday ishlab chiqarish kerak?", "Kim uchun ishlab chiqarish kerak?" - degan savollarga, asosan bozor javob beradi. Shu bois bu tizimni bozor iqtisodiyoti, deb atashadi. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari: 1. Erkin iqtisodiy faoliyat. 2. Xususiy mulkchilik. 3. Erkin narxlar. 4. Iqtisodiy manfaatdorlik va foyda olishga bo'lgan intilish. 5. Monopoliyani rad etish. 6. Raqobat.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy xususiyatlari bu xususiy mulkchilik va unga asoslangan erkin iqtisodiy faoliyatadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil mulk shakkari: xususiy, jamoa va davlat mulklari mayjud bo'lib, ular teng huquqli rivojlanadi. Ishlab {chiqarish vositalarining ko'pchilik qismi xususiy shaxslar qoMida bo'lib, ular o'z iqtisodiy faoliyatlarini mustaqil, erkin ravishda olib boradilar. Bu tizimda xoh u ishlab chiqaruvchi bo'lsin, xoh u iste'molchi bo'lsin, ular tomonidan iqtisodiy yechim faqat bozor munosabatlari va qonunlaridan kelib chiqib tanlanadi. Narx erkin bo'lib, u tovarga bo'lgan talab va taklifning o'zaro munosabati orqali shakllanadi.

Bozor iqtisodiyotining yana bir muhim xususiyatlaridan biri - bozor ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatga, foyda olishga bo'lgan intilishi, ishtiyoqidir. Har bir fuqarodagi ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish, uning iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi, yangilikka undaydi. Bu esa, oxir oqibat, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasidagi raqobatni keltirib chiqaradi. Raqobat - bozor iqtisodiyotining eng muhim uisusiyatlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, bozor iqtisodiyoti monopoliyani rad etadi. Chunki bunday monopoliya bor joyda erkin iqtisodiy faoliyat va raqobat bo'la olmaydi. Yuqorida keltirilgan xususiyatlar asosida bozor munosabatlari shakllanadi, bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun shart- sharoitlar yaratiladi va iqtisodiyot boshqariladi.

Tarixga bir nazar: Bozor iqtisodiyoti nazariyasining asoschilaridan biri, bu in- gliz iqtisodchisi Adam Smitdir. Bu nazariya bir necha asrlar davomida asta-sekin rivojlanib, shakllanib va mukammallashib bordi. Ayni paytga kelib, sof bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan davlat yo'q. Qaysi davlatni olmang, davlat u yoki bu darajada iqtisodiyotga aralashadi. XX asrga kelib esa, markazlashgan rejali iqtisodiyotga asoslan- gan qator davlatlar vujudga keldi. Natijada, bu ikki nazariya va amaldagi ikki tizim o'rtasida raqobat, o'zaro musobaqa yuzaga keldi. Bozor iqtisodiyoti jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga javoban, ijobjiy xususiyatlarni o'zida tez mujassamlashtirib, bu o'zgarishlarga tezlikda moslasha oldi va bu bilan iqtisodiy taraqqiyot rivojiga poydevor bo'ldi. Rejali iqtisodiyot esa o'zining beso 'naqayligi, o'zgarishlarga tez moslasha olmasligi tufayli jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga g'ov bo'lib, uni bo'g'a boshladи. XX asr oxirlariga kelib, bozor iqtisodiyotiga tayangan davlatlar iqtisodiyoti gullab- yashnab, iqtisodiy taraqqiyotda ilgari lab ketishdi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot hukm surgan davlatlar iqtisodiyoti tanazzulga yuz tutibjahon taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketdi. Bugungi kunga kelib, bu mamlakatlarda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish ham tarixiy, ham iqtisodiy zarurat bolib qoldi.

Bozor iqtisodiyotining nochorligi: Bozor iqtisodiyoti ham qator kamchiliklardan xoli emas, albalta. Insoniyat tarixi bunga guvohlik berib turibdi. Bozor iqtisodiyoti davlatning iqtisodiyotga aralashuvini inkor etgani holda, jamiyat o'ta boy va o'ta kambag' allarga ajralishiga, mulkning o'ehilik qo'lida to^planishiga, katta-katta monopolist korxonalar vujudpa kelishigavajamiatdag'i ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatning brqrarlashuviga zaminyaratdi. Bozor iqtisodiyotining inflatsiya va ishsilikka qarshi samarali kurasha olmasligi ma'lum bo'lib qokli Bularning barchasiga qaysidir darajada barham beruvchi kuehga, davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turish faoliyatiga ehtiyoj paydo boidi. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi ijobjiy holat silatida e'tirof etildi. Davlatga jamiyatda iqtisodiy qonun-qoidalarning amal qilishi uchun zarur shart-sharoitlar hozirlash, ularning bajarilishini nazorat qilish, iqtisodiyotni tartibga solib turish, bo/or tizimini muhofaza qilish kabi vazifalar yuklatildi.

Aralash iqtisodiyot jamiyat a'zolarining kam ta'minlangan qismim ijtimoiy himoya qilishga, ommaviy farovonlikni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda kechayolgan bozor iqtisodiyotiga o'lish jarayoni deganda, biz xuddi shu silallarga ega bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ya'ni aralash iqtisodiyotga o'tishni tushunamiz.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar! 1. Bozor iqtisodiyoti tizimi - "Nima?" "Qanday?" va "Kim uchun?" degan savollarga qay tarzda javob berishini tushuntirib bering. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanang. 2. Erkin iqtisodiy faoliyat, deganda nimani tushunasiz? 3. Bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilikning roli nimada? 4. Nima sababdan monopoliya bozor iqtisodiyotiga zid keladi? 5. Nima sababdan dunyoning deyarli barcha xalqlari bozor iqtisodiyotini tanlashdi? 6. Hozirgi rivojlangan davlatlardagi bozor iqtisodiyoti qanday nom bilan ataladi? 7. Sof bozor iqtisodiyotining bo'lishi mumkinmi? Nega? 8. Aralash iqtisodiyot sharoitidagi davlatning roli nimalardan iborat bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz? Nega?

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAOT:45

Mavzu : O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari..

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari.haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lim va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishslash.

Darsning jixozи: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

Prezident I.A. Karimov ishlab chiqqan bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili 1)Bozor iqtisodiyotiga bosqich-mabosqich o'tish; 2)Faol ijtimoiy siyosat yuritish; 3)Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; 4)Davlat - bosh islohotchi; 5) Qonunlar va ularga rioya qilisbning ustuvorlig

Bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlari: 1) mulkchilikni isloh qilish; 2) qishloq xo'jaligidagi islohotlar; 3)moliya-kredit sohasidagi islohotlar; 4) tashqi iqtisodiy aloqalardagi islohotlar; 5) ijtimoiy sohadagi islohotlar. faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

0'ZBEK MODELINING ASOSLARI: 1991-yil respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lg'a kiritib, sobiq ittifoq istibdodidan xalos bo'ldi. Endi xalqimiz oldida mustaqillik poydevorini mustahkamlash, hur va erkin fuqarolik jamiyatini qurishdek o'ta mas'uliyatlari vazifa turar edi. Bu vazifani bajarishning birdan bir yo'li bu bozor iqtisodiyotiga o'tish edi.

Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan 0'zbekistonning milliy, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning beshta tamoyili asos qilib olindi.

Bu tamoyillarning asosiy mohiyati Prezidentimiz L.A. Karimovning "0'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida ochib berilgan: 1.Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Bu tamoyilga ko'ra ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlar maf kuradan xoli qilinadi. Qoloq iqtisodiyotning siyosiy mustaqillikka tayanch bo'la olmaslidigan kelib chiqib, iqtisodiyot siyosatdan ustun qo'yiladi.

2.Davlat - bosh islohotchi. Bu tamoyilga ko'ra davlat butun xalq manfaatlaridan kelib chiqib, islohot jarayonlarining tashabbuskori bo'ladi va ularni amalga oshirishga rahbarlik qiladi.

2.Qonunlar va ularga rioya qilishning ustuvorligi. Bu tamoyilga ko'ra islohot jarayonlari tartibli, sinalgan va amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida ularga so'zsiz rioya qilish bilan amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotining qonunchilikka tayanishi demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlar oldida barchaning baravarligi, qonunlarga rioya etish hamma uchun ham qarz, ham farz ekanligini bildiradi.

3.Faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu tamoyilga ko'ra bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadi. Aholining turmush darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy himoya chora-tadbirlari ko'rildi.

4.Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyilga ko'ra bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlari shoshilmasdan, har tomonlama puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich iqtisodiy, siyosiy larzalarsiz amalga oshiriladi.

BOZOR ISLOHOTLARI: Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, respublikamizda shu o'gan qisqa vaqt ichida olamshumul o'zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot asoslari yaratildi. Bunga misol qilib mulkchilik, qishloq xo'jaligi, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy sohadagi amalga oshirilgan islohotlarni keltirish mumkin. Mulkchilikni isloh qilish sohasida davlat mulki hisoblanmish zavod va fabrikalar, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, uy-joylar va boshqa davlat mulklari xususiy lashtirilib, jamoa yoki xususiy mulkka aylantirildi. 1992 - 2004-yillar davomida 130 mingga yaqin korxona va tashkilollarning mulkchilik shakllari o'zgartirildi. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar odamlarga yerdan bepul foydalanish huquqining berilishi, shaxsiy tomorqalar uchun yer maydonlarining kengaytirilishi, fermer va dehqon xo'jaliklarining tuzilishi bilan amalga oshirilmoqda. 0'zbekistonda 2004-yilda fermer xo'jaliklarining umumiyo soni 104 mingdan oshib ketdi. Ularga biriktirilgan yer maydoni 2,9 mln. gektami tashkil qildi. Moliya-kredit sohasidagi islohotlar respublikamiz o'z valutasini muomalaga kiritishi, qator tijorat banklarining ochilishi qimmatbaho qog'ozlar bozorining tashkil qilinishi, yangicha soliq tizimining yaratilishi kabi qator bozor talabiga javob beruvchi moliya tizimini yaratish yordamida amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalardagi islohotlar respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalarini erkinlashtirishga qaratilgan. Ko'plab xorijiy davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilinmoqda. Respublikamizning boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq qilish imkoniyatlari kengaymoqda. 0'zbekistonda 1994 - 2004-yillarda tashqi savdo aylanmasi 63,6 foizga, shu jumladan, eksport hajmi 80,4 foizga, import hajmi 46,2 foizga o'sdi. Ijtimoiy sohadagi islohotlar o'tish davrida vujudga keladigan turli noxush holatlardan aholini himoya qilishga qaratilgan. Narx-navoning oshishiga mos ravishda maosh, stipendiya, pensiya va turli xil nafaqa pullari miqdori oshirib borilmoqda. Respublikamiz bilan bir qatorda mustaqillikni qo'lg'a kirit-gan va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayot-gan davlatlar talaygina. Bu davlatlarning ba'zilarida bozor islohotlari shoshma-shosharlilik va tavakkalchilik bilan amalga oshirilyapti. Buning oqibatida bu davlatlar iqtisodiyoti o'ta mushkul vaziyatga tushib qolmoqda. Bunday ahvolni ko'rib turib, bizning mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari naqadar oqilona va izchil yo'ldan borayotgani va amalga oshirilayotganligiga amin bo'lamiz.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarни rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

SANA

SINF VIII VAQT:45

Mavzu : V bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar..

Ta'llimiy maqsadi: O'quvchilarni Raqobat va bozor iqtisodiyoti haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlanuvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyalarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixizi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

A. Savollar. 1.Nima sababdan bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatsiz iqtisodiyot rivojlanmaydi?

2.Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) orasidagi raqobat natijasida iste'molchilar qanday naf'ko'rishadi? Misollarda tushuntiring.3.Monopolianing qanday iqtisodiy zararlari bor?4.Iqtisodiyotda monopoliyalarning mavjud bo'lishi har doim ham yomon oqibatlarga olib kelaveradimi?5.O'zbekiston nima sababdan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi ?6.Shu kunlarda iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nimalarda namoyon bo'lmoqda?7.Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning roli nimalarda ko'rindi?8.Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning mohiyati nimada?9.O'tgan vaqt ichida respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida qanday ishlar amalga oshirildi ? 10.Bozor iqtisodiyotining qanday salbiy tomonlari shu kunlarda namoyon bo'lmoqda ? Bunga sabab nima?

B. Topshiriqlar Quyida awal atamalarning nomlari so'ng ularning talqinlari berilgan. Har bir atamaga mos talqinni toping.

Atamalar: 1)Bozor iqtisodiyoti. 2)Raqobat. 3)Narxlar vositasiz raqobatlashish. 4)Narxlar vositasida raqobatlashish.5)Aralash iqtisodiyot. 6)Monopoliya. 7)Oligopoliya. 8)Sof raqobat bozori. 9)Iqtisodiy tizim.

Talqinlar: a)bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning maqbul tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy iqtisodiy tizim;b)xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy yechimlar bozor mexanizmi yordamida aniqlanadigan iqtisodiy tizim;d)jamiyat(mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakli;e)muayyan tovar turi yakka ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilaming kirishi o'ta qiyin bo'lgan bozor;f)muayyan tovar turi juda ko'p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilaming kirishi oson, narxlar erkin bo'lgan bozor;g)tovar narxini o'zgartirmasdan, uning sifatini yaxshilash, reklamani kuchaytirish kabi omillar orqali raqobatchilarga ta'sir ko'rsatish;h)bir nechta yirik korxona va firmalarning monopoliyasidan iborat bo'lgan bozor;i)tovar narxini tushirish yoki oshirish yordamida raqobatchilarga ta'sir ko'rsatish;j) iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi tomonlar manfaatlarining to'qnashuvidan yuzaga keladigan o'zaro kurash.

D. Testlar: Berilgan savolga mohiyat jihatdan eng to'g'ri va to'liq javobni belgilang.

1.Noto 'g'risini toping. Sof raqobat bozorida: A Sotuvchi tovar narxini o'zi bilganicha o'zgartira olmaydi. B. Sotuvchilar o'rtasida raqobat mavjud boiadi. D.Sotuvchi tovar narxini xohlagancha o'zgartira oladi. E.Sotuvchilar sonining keskin ortib ketishi tovarlar narxining pasayishiga olib keladi. F.Xaridorlar sonining keskin kamayib ketishi narxning o'sishiga olib keladi.

2.Oligopolistik bozorda: A.Sotuvchi yagona bo'ladi. B.Tovarlar har xil boiadi. D.Narxni, asosan yirik va kuchliroq firmalar belgilaydi. E.Raqobat bo'lmaydi. F.Boshqa sotuvchilaming bozorga kirib kelishiga to'siqlar bo'lmaydi.

3.Monopolistik raqobat bozorida: A.Bir xil tovarlar sotiladi. B.Monopolist sotuvchilar ko'p bo'lib, o'zaro raqobat qiladilar.D.Sotuvchi bitta bo'ladi. E.Xaridor bitta bo'ladi. F.Faqat xaridorlar o'rtasida raqobat bo'ladi.

4. Sotuvchilar raqobatlashishi natijasida: A.Tovar narxi ko'tariladi. B.Tovar turlari ko'paymaydi. D.Tovar narxi tushadi.E.Tovar sifati tushib ketadi. F.Mavjud texnologiyalar o'zgarmaydi. 5.Tovarga bo'lgan talab miqdori taklif miqdoridan baland bolganda, kimlar o'rtasida raqobat vujudga keladi? AXaridorlar. B.Sotuvchilar. D.Sotuvchilar bilan xaridorlar. E.Ishlab chiqaruvchilar bilan xaridorlar. F.Faqat monopoliyalar. 6.Raqobat natijasida tovarlar : A.Sifati yomonlashadi, narxi oshadi. B.Narxi o'zgarmaydi, sifati yomonlashadi. D.Turi ko'payishi mumkin. E.Narxi tushishi, sifati esa yaxshilanishi mumkin. F.Narxi faqat oshadi. 7.Noto 'g'risini toping: A.Bozor iqtisodiyoti monopoliyaga qarshi kurasha oladi. B.Davlat monopoliyalarga ta'sir o'tkaza oladi.D.Davlat monopoliyasi ham mavjud bo'lishi mumkin. E.Turli chekllovlar natijasida ham monopoliya vujudga kelishi mumkin.F.Monopoliyalarning vujudga kelishida raqobat ham sababchi bo'lishi mumkin. 8.Noto 'g'risini toping: A.Sotuvchilar raqobatlashishi natijasida narx pasayadi. B.Xizmat ko'rsatish sohasida raqobat bo'lmaydi.D.Sotuvchi bilan xaridor raqobatlashishi mumkin. E.Xaridorlar raqobatlashishi natijasida narx ko'tariladi. F.Raqobat bozor iqtisodiyotini hara-katga keltirib turuvchi kuchdir. 9.Qaysi bandda bozorlar nomlari mono-polialashish darajasining o'sishi tartibida joylashtirilgan?A.Sof raqobat, oligopoliya, monopolistik raqobat, monopoliya. B.Sof raqobat, monopoliya, oligopoliya, monopolistik raqobat.D.Sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya, monopoliya. E.Monopolistik raqobat, monopoliya, sof raqobat, oligopoliya.F.Monopolistik raqobat, sof raqobat, oligopoliya, monopoliya. 10.Raqobat muhiti bo'lishi uchun qanday sharoitlar bo'lishi kerak? A.Sotuvchilar va xaridorlarning ko'p bo'lishi. B.Firmalarning muayyan, bir xil tovar ishlab chiqarishga ixtisos-lashgan bo'lishi.D.Tovar narxiga hech qaysi firma ta'sir o'tkaza olmasligi. E.Bozorga kirishga hech qanaqa to'siqlarning bo'lmasligi.F.Yuqoridagi sharoitlarning barchasi. 11.Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri bozor iqtisodiyotiga xos emas? A.Tadbirkorlik. B.Xususiy mulkchilik.

D.Monopoliyani quvvatlash. E.Raqobat. F. Erkin iqtisodiy faoliyat. 12.To'g'ri tasdiqni toping. Bozor iqtisodiyoti sharoitida: A.Ihsizlik bo'lmaydi. B.Pul qadrsizlanmaydi. D.Tadbirkorlikka keng yoi ochiladi. E.Narx-navo oshmaydi. F.Raqobat bo'lmaydi. 13."Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi" tamoyili: A.Davlatning bosh islohotchi bo'lishi lozimligini bildiradi. B.Qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lish zarurligini bildiradi. D.Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarurligini bildiradi. E.Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilihini bildiradi.F.Ava Djavoblarto 'g'ri. 14."Qonunlar va ularga rioya qilishning ustuvorligi" tamoyili: A.Iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi lozimligini bildiradi.B.Davlatning bosh islohotchi bo'lishini anglatadi. D.Islohot jarayonlari tartibli, sinalgan va amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida ularga so'zsiz rioya qilish bilan amalga oshirilishini bildiradi. E.Bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'yekti iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda "inqilobiy yo'l" bilan o'tish zarurligini bildiradi. F.Yuqoridagilarning barchasini o'z ichiga oladi. 15.Bozor iqtisodiyoti sharoitida: A.Mulkning asosiy qismi xususiy shaxslar qo'lida bo'ladi. B.Davlat yagona mulkdor bo'lib qoladi.D.Davlat mulkiga ustuvorlik beriladi. E.Mulkka nisbatan monopoliya saqlanib qoladi. F.Mulk o'z mohiyatini yo'qotadi.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

M,M,I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

A.Matmuratov.

Mavzu : : Soliq va unug turlar..

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni Soliq va unug turlar haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol -javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mohiyatini tushunish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini bilish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblay olish;
- yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i haqida tasavvurga ega bo'lish va uning stavkalarini bilish;
- jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'inining mohiyatiga tushunish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini bilish;
- aksiz solig'i mohiyatini tushunish;
- ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar mohiyatini tushunish.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'I : Har bir fuqaro o'z daromadlaridan soliq to'lashi shart. Soliq toiovlari davlat budgetiga kolib tushadi va soliq to'lovchilarga ta'lif, tibbiy xizmat, mudofaa, jamoat tartibini lash, nafaqa, pensiya, stipendiya va boshqa davlat korxonalarini tomonidan ko'rsatiladigan imtlar va yordam pullari ko'rinishida qaytib keladi. Shu bois, soliqlarni o'z vaqtida ash liar bir fuqaro uchun ham qarz, ham farz. Daromad solig'i davlat solig'i bo'lib, to'g'ri soliqlar sirasiga kiradi.


Daromad solig'i jismoniy shaxslarning jami yillik daromadidan olinadi. Demak, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish obyekti hisoblanadi. Ma'lumki, har bir kishining yillik daromadi: haqi, mukofotlar, mulk ijarasidan olingan daromad, bankka qo'yilgan omonatdan kelgan foizlar, aksiyadan olingan dividendlar va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlardantashkil topishi mumkin. Jismoniy shaxslar aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan oladigan dividendlaridan, mat foizlaridan 10 foizli stavkada soliq undiriladi. Mahalliy hokimiyat tomonidan berilgan maxsus ruxsatnomasi - patent asosida yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlikdan olgan daromadlaridan qat'iy belgilangan soliq to'laydilar. Ya'ni bu fuqarolar tadbirkorlik faoliyatidan qancha daromad olishlaridan qat'iy nazar, ulardan belgilangan miqdorda daromad solig'i undiriladi.

Daromad solig'i to'lovchilari, daromad solig'i stavkalarini va uni hisoblash bilan bog'liq tartib va qoidalar Soliq kodeksida o'z aksini topgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, belgilanadigan eng kauish haqi miqdoriga bog'liq holda hisoblanadi. Respublikamiz fuqarolari 2010-yil yanvar oyidan boshlab quyidagi tartibda daromad solig'ini to'lay boshlardilar Bu yerda, eng kam oylik ish haqi hukumat tomonidan belgilanadigan miqdor bo'lib, masalan u 2010- yil boshida 37680 so'mni tashkil qilgan.

Ko'rib turganingizdek, daromad oshib borgan sari soliq stavkasi ham oshib boryapti. Bu adolatli mezon bo'lib, unga ko'ra kam daromadli fuqarolar nisbatan kamroq, katta daromadli fuqarolar esa ko'proq soliq to'lashlari lozim bo'ladi.

Daromad solig'ini hisoblash: Ish haqidan olinadigan soliqlarni va boshqa ijtimoiy to'lovchilari korxona hisobchisi hisoblaydi. Hisoblangan soliqlar ish haqidan chegirib davlat budgetiga o'tkaziladi. Shunday bo'lsa-da, daromaddan undiriladigan soliqni hisoblay olish har bir fuqaro uchun muhimdir. Amaly mashq. Firma o'z xodimiga 2010-yil yanvar oyida 400000 so'm ish haqi hisobladi. Xodimning bu daromadidan davlatga qancha soliq to'lashi kerak?

2010- yil yanvar oyida eng kam oylik ish haqi 37680 so'm ekanligini hisobga olsak, quyidagi soliq shkalasiga ega bo'lamiz (shkalaning har bir bo'linmasi eng kam ish haqini bildiradi):



$$6 \cdot 37680 \cdot 11\% + 4 \cdot 37680 \cdot 17\% + (400000 - 376800) \cdot 22\% = 24868,8 + 25622,4 + 5104 = 55595,2 \text{ so'm.}$$

Demak, xodim oladigan ish haqisidan davlatga 55595,2 so'm daromad solig'i to'lashi kerak.

Eslatma: Fevral oyi uchun soliq miqdorini hisoblashda, xuddi yuqorida giga o'xshash ish tutiladi. Lekin, soliq faqat fevral oyi uchun emas, balki yil boshidan buyon o'tgan 2 oy uchun hisoblanadi va yanvar oyida to'langan soliq miqdori ayrılatdi. Bu holda daromad va eng kam ish haqi ($2 \cdot 37680 = 75360$ so'm) miqdorlari ham 2 oy uchun olinadi va hokazo.

Yuridik shaxslardan undiriladigab daromad salog'i: Jismoniy shaxslar kabi yuridik shaxslar ham o'zlarining faoliyati natijasida olgan immadlaridan daromad (foyda) solig'iga tortiladilar. Yuridik shaxslaraing daromad (foyda) solig'i stavkalarini har yili Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Quyida yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i stavkalarini yillar bo'yicha keltirilgan :

Yillar	1998	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007- 2010
Daromad solig'I stavkasi				20%	18%	15%	12%	10%

Ushbu jadvaldan ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilib, soliq stavkalarini yildan-yilga kamaytilmoqda. Shu bilan birga, Soliq kodeksida ko'zda tutilgan, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi qarorlari asosida belgilangan iridik shaxslar turli soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Masalan, yangi tashkil ilmgan firma va korxonalar, ya'ni yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yili 25%, 2-yili 50% belgilangan stavkadan kamaytitrilgan holda, keyingi yillarda esa, belgilangan stavka bo'yicha soliq to'laydilar.

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.

Mavzu : : Soliqqa tortish asoslari.

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni Soliqqa tortish asoslari haqidagi malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kasbga bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shkillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikirlash qobiliyarlarini oshirish.

DTS talablari asosida ta'lif va tarbiya berish

Darsning uslibi: Tushuntirish, savol –javob, mustaqil ishlash.

Darsning jixoxi: Darslik, doska, ko'rgazmali va tarqatma materilallar.

Darsning borishi: yangi mavzuni bayoni

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mik – mulk solig'i: Har qandayjismoniy shaxsning ma'lum miqdorda mol-mulkni bo'ladi.

Qonunga ko'ra, mol - mulkidan soliq to'lovchi shaxs mol-mulk solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. Jismoniy shaxsning mol-mulkni esa soliq obyekti bo'ladi. Ma'lumki, soliq nimadan undirilsa, o'sha natsa soliq solish obyekti bo'ladi. Soliq kodeksiga ko'ra, mol-mulk solig'ini obyekti quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli moratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar va inshootlar; 2010- yili mamalakatimizda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini stavkasi hisoblangan mol-mulk qiyamatining 0,5 foizi miqdorida belgilangan.

Iqtisodiy huquq asoslari : O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli moratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir. (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 273-modda)

Yer solig'ini stavkalari har yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliqni hisoblash va to'lash: Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinuvchi soliq davlat soliq idoralari tomonidan toplanadi.

Imorat, bino va inshootlardan to'lanadigan soliqlarning miqdori ularning har yili 1 - yanvardagi qiymatiga asosan belgilanadi.

Imorat, binolar va inshootlarning egasi bir nechta bo'lса, ulardan to'lanadigan soliq miqdori har bir odamning ulushiga qarab belgilanadi. Yangi qurilgan yoki sotib olingan binolarga soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'ini to'lash ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan boshlab to'xtatiladi. Meros bo'lib qolgan mulkdan mol-mulk solig'i, meros olingan paytdan boshlab to'lanadi. Agar mulkning egasi almashsa, uning oldindi egasi joriy yilning 1-yanvaridan boshlab egalik huquqi yo'qolgan paytgacha (oygacha) sohqni to'laydi. Mulkning yangi egasi esa egalik huquqini olgan oydan boshlab to'laydi. Agar mulk egasi soliq to'lashda ayrim imtiyozlarga ega bo'lish huquqini qo'liga kiritsa, mol - mulk solig'i o'sha huquq vujudga kelgan oydan boshlab qayta hisoblanadi. Mol-mulk solig'ini to'lash haqida to'lov xabarnomalari davlat soliq idoralari tomonidan to'vchilarga har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yuridik shaxslardan undiriladigan mol – mulk solig'I : Jismoniy shaxslar kabi yuridik shaxslar ham mol-mulk solig'ini to'laydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini obyekti quyidagilardan iborat: • asosiy vositalar, shu jumladan molibiyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar; • nomoddiy aktivlar; • tugallanmagan qurilish obyektlari; • belgilangan muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar. Mol-mulk solig'ini korxona mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiyamatidan olinadi.

2008- yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig'inining stavkasi - mol-mulk o'rtacha yillik qoldiq qiyamatining 3,5 foizi miqdorida belgilangan. Ushbu soliq stavkasi korxona mulkining qayta baholangan qoldiq qiyamatidan undiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'I : Malamlakatimiz soliq tizimida yer solig'ini mahalliy soliq va yig'imlar turiga mansub.

Yer solig'ini boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, ushbu soliq qat'iy to'lovdir. Ya'ni yer egalari va foydalanuvchilari o'z faoliyatlarini davomida qanchalik foyda ko'rganlaridan qat'iy nazar, yer solig'ini to'lashlari shart.

Chunki, ushbu tmalga tatbiq etilishining asosiy maqsadi - yerdan oqilona foydalanish, uni avaylash, tanlov - tijorat qilinishiga yo'l qo'ymaslikdir. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan shaxslar yer solig'ini to'lovchilari hisoblanadi. Jimoni shaxslarning quyidagi yer maydonlari soliq obyekti hisoblanadi:

Shqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer maydonlari;

yakka lartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalar;

jamoas bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligin yuritish uchun berilgan yer uchastkalar;

xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar; meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birlgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalar;

• qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalar;

• tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkalar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar yer solig'inining to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Yagona soliq to'lashga o'tgan yoki soliqning alohida turlariga o'tgan korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lmaydilar. Yuridik shaxslar ajratib berilgan yerlar uchun yerdan foydalangan yoki foydalanmaganidan qat'iy nazar yer solig'ini to'laydilar. Yuridik shaxslar uchun quyidagi yer maydonlari yer solig'ini obyekti bo'lib hisoblanadi: • qonunda belgilangan tartib bo'yicha o'z mulki qilib olingan yer maydonlari; • o'rmon xo'jaligi uchun egalik qilishga berilgan yerlar; • korxona qilishga, imoratlar, inshootlar qurishga yoki boshqa noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga berilgan yerlar.

Yer solig'inining imtiyozlari : Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yerlar - yer uchastkasi berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga soliq solinmaydi. Agar yerdan o'z ornida foydalanilmasa, bu imtiyoz qo'llanilmaydi. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini stavkalari, yer sifatiga bog'liq holda belgilanadi. Quyidagi yer maydonlari yer solig'idan ozod etiladi: • shaharlar, shahar qo'rg'onlari, qishloq aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, o'tish joylari, yo'llar, ariq yoqalari, ariqlar, mozorlar va boshqalar);

• bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik jamoalari uchun umumiyligi foydalanishga berilgan yerlar; • tabiatni muhofazalashga mo'ljallangan yerlar; • tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan yerlar; • suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suvomborlari, kanallar, dengizlar va shu kabi umumfoydalanadigan yerlar).

Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga vazifa : O'tilgan mavzuni o'qib o'rganib kelish

O',I,B,D,O':

I. Avezmuratov.

M,M,I,B,D,O':

A.Matmuratov.